В декабре 2017 года «Кушт депди» — национальный танец и газельное искусство туркменского народа — был включен в список нематериального культурного наследия человечества ЮНЕСКО. Невозможно представить танцевальное искусство наших народов без «Кушт депди» и «Лазги».

Народные танцы – особая часть культуры народов. Танцы «Кушт депди», и «Лазги» отражают разви-

тие, совершенствование и духовное обогащение мировоззрения двух народов от начала истории до наших дней. Сочетая в художественной хореографии национальную танцевальную эстетику и традиционную эклектику, эти танцы соединяют прошлое с настоящим, порождая неукротимую любовь к жизни.

Гордостью для узбекского народа является танец «Лазги». «Лазги» – визитная карточка танцевального искусства Хорезма. Уже много сотен лет хорезмский народный танец «Лазги» доставляет окружающим радость и эстетическое наслаждение. В наши дни он очень популярен, как и века назад. Это не только просто танец, это целая система движений – полусогнутые ноги, преобладание мелкой тряски плечами и руками, неуловимые «порхающие» движения кистей рук, акцентированный ключ налево и слева направо. Мимика при исполнении хорезмского танца невероятно экспрессивна и эмоциональна. «Лазги» бывают торжественными, лирическими, комическими. Отличаются они способом выражения чувств, эмоций, мироощущения, миропонимания исполнителя. По имеющимся данным, история танца насчитывает более трех тысячелетий. На протяжении столетий в созвучии с эстетическим восприятием, традициями и ценностями узбекского народа возникло несколько направлений и видов танца «Лазги». Существует девять видов лазги: «Масхарабоз», «Кайрок», «Сурнай», «Дутар», «Сарой-базм», «Гармон», «Чангак», «Чанок» и «Хива». – перечисляет Хулкар Хамроева.

Существует мнение, что название этого танца связано с глаголом «трястись». Поэтому для танца характерны такие энергичные дви-

жения, как тряска плечами, руками, а также использование браслетов «занги» со звенящими при любом движении колокольчиками. В начале танца звучит медленный запев. Танцовщица выходит в размеренном темпе, исполняет движение руками, украшенными зангами. И, неожиданно замирает в статичной позе. Затем на музыкальную фразу поза начинает рассыпаться, звучит хорезмский «ключ» (определенная комбинация движений), и танцовщица замирает в другой позе. Ритм танца постепенно ускоряется, наполняя его все большим жаром и энергией, завершая танец с почти экстатическим чувством чистой радости и счастья. Считается, что история лязги тесно связана с древним Хорезмом, который «возник на пересечении оседлых и кочевых племен с различными культурами и располагался к югу от Аральского моря, в дельте Амударьи пределах оазиса, окруженного пустынями Каракум, Кызылкум и Устюртское плато». Танец «Лазги» занимающий особое место в истории национального танцевального искусства, образно говоря, являющийся его венцом, своей глубокой жизненной философией, неповторимым стилем исполнения, изяществом и очарованием завоевал славу не только в Узбекистане но и рубежом.

Своим волшебством, притягательностью и яркой палитрой красок танец «Лазги» завоевал мировую сцену, являя собой высокий образец подлинного искусства, объединяющего разные народы. Это подтверждает также то, что 12 декабря 2019 года ЮНЕСКО включила хорезмский «Лазги» в список нематериального наследия человечества.

История лязги окутана легендами и мифами, что делает этот танец

магическим и загадочным. Наиболее известная легенда повествует о боге, создавшем человеческое тело, в которое он затруднялся вдохнуть жизнь, потому что Душа не захотела входить в темное внутреннее пространство тела. Однако все изменилось, как только Душа услышала звуки неотразимой музыки: Душа, очарованная энергичными музыкальными ритмами, проникла в тело, постепенно наполнив его жизненной энергией. Поэтому лязги начинается постепенно: последовательно приводить в движение пальцы и кисти, затем руки, плечи, шею, корпус и ноги, приводя все тело в движение, сопровождающееся мелкой дрожью, с комбинацией поворотов, наклонов, мелких проходов, приседаний, подскоков и специфических движений шеи.

Легенда об очарованной Душе и о поломанной ноге. Однажды после вечернего приема, хорезмский шах собрал своих жен наложниц, чтобы они станцевали ему. Среди жен он выделял одну, обладающую природной грацией, умением заворожить танцем. Остальные жены не хотели оставаться в тени красавицы. Одна из соперниц во время танца подкинула ей под ноги бусы и конфеты. Любимая жена поскользнулась, упала и сломала ногу. Дабы не расстроить любимого, она станцевала, не разгибая пальцы на руках. Шах остался очень доволен, приняв странные движения девушки, за новый танец. Так, по преданиям, появился характерный для хорезмского танца «Лазги» своеобразный стиль – «ломаные» движения кистей рук и ног.

Необычностью отличаются и танцевальные костюмы «Лазги». Неотъемлемой частью мужского хорезмского танцевального костю-





ма является грубая меховая шапка – папаха а также головной убор “чугурма” из длинношерстного каракуля. Женский головной убор напротив очень изящен, обязательно украшен роскошным пером и монетками. Женщины-танцовщицы надевают одежду ярких цветов. Костюмы танцовщиц всегда украшены многочисленными монетками. Со временем лязги трансформировался из одиночного камерного танца в групповой танец, аккумулируя в процессе сотни новых движений, которые задействуют все мышцы тела, включая лицевые мышцы и мимику лица, глаза и брови, а также различные замысловатые танцевальные композиции.

По словам исследователей танца, хорезмский танец объединяет в своем языке и движения степного тушканчика, замершего в степи, и качающиеся на ветру ветки дерева, и рога грациозной газели, и движения, имитирующие сбор яблок, и движения ястребиной шеи. Также считается, что лязги и по сей день остается лучшим способом выражения любви, доброты, жизнелюбия и общности духа, столь присущего жителям Хорезма.

Уже в наше время легендарные узбекские танцовщицы Тамара Ханум, Мукаррам Тургунбаева и Гавхар Матякубова оттачивая каждое движение довели до совершенства народный хорезмский танец. По словам Хулкар Хамроевой, хорезмская танцевальная школа насчитывает 19 основных танцевальных движений. Вообще, эта школа славится непростой техникой ис-

полнения, отмечает эксперт, ведь от танцора требуются и хорошая физическая подготовка, и актерское мастерство. Ведь танец с каждым тактом набирает скорость, при этом нельзя забывать о мимике.

Наши обычаи и традиции, воспитывающие такие нравственные принципы, как уважение к человеку, добронравие, правдивость, гуманизм, любовь к священной Отчизне, родителям, родной земле, национальным святыням, способствуют приумножению авторитета наших народов, демонстрируя миру прекрасный образец дружбы.

Мы очень гордимся тем, что туркменский «Кушт депди» и узбекский «Лазги», веками живущие вместе с нашим народом, теперь имеют новый современный колорит. Следует отметить, что за годы независимости наших братских государств вместе с национальным наследием двух народов туркменское «Кушт депди» и узбекское «Лазги» были модернизированы и получили новую окраску, обогатилась тематика. сфера применения была широкой. Священный долг нынешнего и будущих поколений – сохранить их как важную часть нематериального культурного наследия наших народов, как национальное достояние. Этот международный фестиваль, организованный правительством Узбекистана, является прекрасным подтверждением того, о чем мы говорили выше. Именно поэтому мы говорим слова признательности главам государств двух братских народов от имени деятелей культуры двух народов.


СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гурбангулы Бердымухамедов «Культура – бесценное сокровище народа».
2. Гурбангулы Бердымухамедов «Туркменская культура».
3. Sputnik Узбекистан. Интервью Х.Хамроевой.

KITOBAT BADIY YOZUV VA BITIKLARNI O'RGANISHNING MA'NAVIY AHAMIYATI

Ne'mat MANSUROV,

Kamoliddin Behzod
nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn
instituti dotsenti



Annotasiya. Maqolada O'zbekistonda xattotlik san'atining qadimdan rivojlanish tarixi, maktabi, ma'naviy boy adabiyotlar, muqaddas kitoblar, me'moriy obida va san'at asarlaridagi badiiy yozuv va bitiklarni o'rganish masalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kitob bezagi, xattotlik, arab yozuvi, ustoz-shogird, ustmuqova, litografiya, kadrlarni tayyorlash, ma'naviy yetuk.

Аннотация. В статье рассматриваются история древнего развития искусства каллиграфии в Узбекистане, его школа, духовно богатая литература, священные книги, памятники архитектуры и произведения искусства, проблемы изучения художественных надписей и каллиграфии.

Ключевые слова: художественное оформление книги, арабская каллиграфия, арабское писание, учитель-ученик, обложка книги, литография, обучение персонала, духовное развитие.

Abstract. The article examines the history of the ancient development of the art of calligraphy in Uzbekistan, its school, spiritually rich literature, sacred books, architectural monuments and works of art, problems of studying artistic inscriptions and calligraphy.

Keywords: artistic design of the book, Arabic calligraphy, Arabic scripture, teacher-student, book cover, lithography, staff training, spiritual development.

O'zbekistonda ta'lim tizimi jarayoni-
da ijodiy faol, ma'naviy boy shaxsni shakl-
lantirish uchun barcha shart-sharoitlar
yaratib kelinmoqda. Lekin, biz bugungi
kunda yetuk mutaxassislar tayyorlash-



da qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsada, ajdodlarimizning boy merosi hamda tajribalaridan to'liq foydalana olmayapmiz. "Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir." [1, 14-b]

Talaba yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yetarli e'tibor bermayapmiz. Ajdodlarning ustoz-shogird odobi haqida yoritilgan adabiyotlar ham yetarli emas. Zero, bu o'rinda xattotlik (arab – kalligraf) – yozuv, xat yozish san'ati (kalligrafiya, xusnixat), qadimiy, durdona kitob asarlarini ko'chirish va ularni o'rganishning o'ziga xos ahamiyati bor. O'rta Osiyoda xattotlik san'ati qadimdan rivoj topgan. Yozuv paydo bo'lgandan boshlab, maxsus bilimga ega savodxon shaxslar xatotlik bilan shug'ulana boshlaganlar. Ayniqsa, arab yozuvi tarqalgandan keyin xatotlik keng rivoj topgan.

O'rta Osiyoda matbuotchilik vujudga kelgunga qadar kitob tayyorlash ularning nusxasini ko'paytirish ishi bilan xatotlar shug'ulangan. Saroylarda ayrim amaldorlar xuzurida xatotlar jamoalari tashkil topgan (masalan, Mirzo Boysunqur saroyida 40 xatot ishlagan). [4, 32-b]

Ma'lumki, kitob, risola yozishning o'ziga xos tomonlari bor. Ular ustmuqova, ichki muqova, kitob sahifalarini muxofaza qiluvchi varoqlar, kitobning unvoni, xatboshi bezagi, ichki suratli betlari, xotima rasmi bezagi va boshqa shunga o'xshash unsurlardan iboratdir. Qadimgi vaqtlarda kitob tayyorlash qo'lda xech qanday texnika vositalarisiz bajarilib, uning muqovalari ko'pincha charmdan tayyorlangan. Uning ustidan esa yana bir maxsus

g'ilofi, ust jildi bo'lgan, sahifalarining har biri xoshiyalar bilan rangdor mini-atyuralar bilan bezatilgan.

Hozirgi paytda imkoniyatdan kelib chiqqan holda, mazmun mohiyatga qarab u ko'pincha grafik imkoniyatlar darajasida, ba'zan rangli suratlar bilan, ba'zan oq-qora tasvirli chizma tasvirlar bilan bezatilmoqda. Barcha muqova hamda ichki qismdagi suratlarini rangli qilib chiqarish ko'pincha bolalarga atab chop etiladigan badiiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi. Bunday qiziq suratli kitoblarning aksariyati yumshoq muqovalarda chop etilmoqda. Ba'zan kitobning ichidagi suratlar tushda, pero bilan chizilgan tasvirlar asosida bezatib tayyorlanadi. Ba'zan esa grafikaning dastgohli turlari - ofort, ksilografiya, litografiya, linogravyura usulida ishlagan mualliflik asarlari vositasida ham bezatilganlari uchraydi.

So'ngi paytlarda kitob bezak ishlarida dastgohli grafikadan foydalanish nisbatan ancha kamayganligini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Ayni paytda bezak uchun akvarelda, guashda, hamda tushda bajarilgan rasm-tasvirlar ko'proq foydalanilmoqda. E'tibor ustmuqovaga qaratilmoqda va rangdorlik baxsh etilmoqda, kitobning ichki qismlari esa soddaroq ko'rinish kasb etib bormoqda.

Xatotlik san'ati uslublari to'g'risida ko'p risolalar yaratilgan. Amir Temur xukumronligi davrida nasta'liq uslubi yaratilgan, uni yaratgan mashhur xatot Mirali Tabriziy, shuningdek, Sultonali Mashxadiy, Majnun ibn Kamoliddin Rafiqiy, Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy, Munis Xorazmiy, Is'hoqhon To'raqo'rg'oniy kabilarning xattotlik haqidagi risolalari bizgacha yetib kelgan. Ularda yozilishicha, xattotda 7 xil asosiy san'at mavjud: suls, muxaqqad, nasx, tavqye', riqo', ta'liq, nasta'liq. VII asr-

da arab yozuvining keng tarqalgan uslublaridan biri kufiy hati ixtiro qilingan (ixtirochisi Ya'rab ibn Qahton). O'rta Osiyoda turli yozuv usullari mavjud bo'lgan. Masalan, makkiy, madaniy, basariy va boshqalar. Bularndan oldinroq ma'qaliy (tik chiziqli) yozuvi bo'lgan. Kufiy yozuvi ko'pgina obidalarining naqshlarida saqlanib qolgan. Xalifa Muqtadir zamonida yashagan olim Ibn Muqla' (864-934) ni xatti sitta (olti xil yozuv: suls, muhaqqaq, rayhoniy, nasx, tavqye', riqo') ixtirochisi deb tan olingan.

Zamonlar o'tishi bilan kufiyning turli shakllari ixtiro etilgan. Qur'onning ilk namunalari (masalan, Toshkentdagi Amir Temur muzeyida saqlanayotgan Usmon Qur'oni) shu yozuvda yozilgan, keyinchalik bu yozuv asosan binolarning bezaklarida qo'llanilgan. Muhaqqaq yozuvi kufiyning bir oz o'zgartirilganidir. Rayxoniy uslubi muhaqqaq yozuviga o'xshagan lekin harf shakllari rayxon barglariga o'xshagani uchun shu nom bilan atalgan. Nasx yozuvi kufiy va muhaqqaq xatlaridan qur'on ko'chirishda ma'qul topilan. Tavqye' buyruq va farmonlar yozishda foydalanilgan. Riqo' yozuvi ancha yaqin lekin undan nozikroq, asosan maktublarda ishlatilgani, kitobga aloqasi bo'lmagani uchun parcha (arab ruqa') qog'ozlarga nafis qilib yozilgani uchun riqo' deb atalgan. [2, 21-b]

XV asr boshlaridan kitob ko'chirishda (fors, eski o'zbek tillarida) nashtaliq xati rasm bo'ldi. Navoiy ta'biricha, xattotlar sultoni bo'lgan Sultonali Mashxadiynasta'liq xatini ajoyib san'at darajasiga ko'targan. Kitobiylikda bosmaxona paydo bo'lgunga qadar xattotlar mexnati asosiy rol o'ynaydi. Kitob chiqarish ishlari xukmdorlarning hoxishi va mablag'lari bilan amalga oshirilgan. Bu borada Boysunqur, Alisher Navoiy, Feruz va boshqalarning faoliyati diqqatga sazovor.

Yirik kutubxonalarda xattotlar qo'l yozma kitoblar bilan shug'ullandilar (masalan, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi kutubxonada bir guruh xattotlar ishlagan). 1943 yilda Sharqshunoslik instituti tashkil topib, eng yaxshi xattotlar shu yerga yig'ildi, ular eski qo'lyozmalarni tiklash, ko'chirish, tavsif kartochkalari tuzish bilan shug'ullana boshladilar.

Kitob grafikasi tarixi va hozirgi kunini bilish uchun ko'p mutolaa qilish kerak. O'tmish rassomlari ijodini o'rganish bu ishda samarali bo'ladi. Shu ma'noda respublikamiz taniqli rassomlaridan biri sifatida mashxur, o'z paytida nom qozongan Iskandar Ikromov merosini o'rganish juda o'rindir. Musavvir yaratgan kitob muqova rasmlari bezak namunalari bilan atroflicha tanishish yaxshi saboq beradi deb o'ylaymiz. Eng muhimi esa kitob bezagi ustida ishlashni, amaliy o'rganishni maqsad qilib qo'ygan har bir talaba o'z bilimini oshirish uchun ko'p mashqlar bajarishi, izlanishi lozim. Shunda u amaliy faoliyatini, o'quv jarayonining kompozisiya mashg'ulotlari davomida mahoratini tobora oshirib boradi va yuqori natijalarga erisha oladi.

Arabyozuvida kitobat qilingan ming yillik madaniy meros nasldan-naslga qo'lyozma shaklida o'tib kelgan. Shu qulyozma kitoblar tufayligina O'rta Osiyo xalqlari ota-bobolari yaratib qoldirgan madaniy merosdan bahramand bo'lganlar. Shu qo'lyozmalar tufayli o'rta Osiyodagi har bir xalq, har bir millat o'z tarixiga ega bo'lgan. Nihoyat, shu qo'lyozmalar tufayli O'rta Osiyo xalqlari jahon madaniyat tarixi taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olgan. Bu qo'lyozma kitoblarning muallif tomonidan parcha-parcha qorozlarga yozilib ijod etilgandan so'ng, uni oqqa ko'chirib, kitob tusiga kirituvchi g'oyat murakkab, mashaqqatli, ayni vaqtda



sharaflı vazifani bajaruvchi shaxs — kotib bo'lgan. Kotiblik daf'atan qaraganda kishiga bir texnik vazifaga o'xshab ko'rinadi. Kotib guyo muallifning yaratgan asarini harfma-harf ko'chiruvchi kishidek bo'lib tuyuladi. Haqiqatda esa bunday emas. [5, 12-b]

O'rta asrlarda hali kitob bosish texnikasi ixtiro etilmamasdan avval har qanday asar qo'lda ko'chirilib, kitobat qilingan. Kitobat qilish feodalizm davrida ham alohida o'rinni egallagan bo'lib, kitob ko'chirish katta hunar va san'at hisoblangan va bu hunar egalari tarixda xattot yoki kotib nomi bilan mashhur bo'lgan.

O'rta Osiyoda xattotlik san'atining rivojlanishi Temur va temuriylar davridan boshlangan bo'lib, husnixat san'ati dastlab Xuroson poytaxti Hirotida rivojlanib, u yerda Sulton Ali Mashhadiy tomonidan yirik xattotlik maktabi tashkil etilgan. Maktabning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu yerda asosan XIV asrda Mir Ali Tabriziy yaratgan nasta'liq xat uslubi Sulton Ali tomonidan takomillashtirilgan va bu uslubda asosan badiiy, tarixiy asarlarni yozishda foydalanilgan. Diniy va ba'zi ilmiy asarlar esa, nasx xatida ko'chirilgan bo'lsa ko'fiy, riqo' va suls xatlarida ko'proq me'morchilik, naqqoshlik san'ati yo'nalishlarida ishlatilgan. XVI asrda temuriylar saltanati

inqirozga yuz tutib, siyosiy hukmronlik shayboniylar qo'lga o'tishi bilan Buxoroda madaniy hayot ma'lum darajada taraqqiy etgan. Shu jumladan, xattotlik san'ati ham. Hirot xattotlari, rassomlari va madaniyat arboblariidan bir qismi Buxoroga kelib, u yerda Buxoroning o'ziga xos bo'lgan yangicha kitobat va husnixat san'ati ma'lum darajada rivoj topadi. XVI va XVII asrlarda yashab ijod etgan Buxoro xattotlari husnixat bobida o'ziga xos uslub — Buxoro xattotlik maktabini yaratdi.

Buxoroi sharifda ajib san'at namunalari bo'lgan xattotlik san'ati va mehnati tufayli minglab nodir asarlar, jumladan, Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Daloili (xayr ishlarga dav'at etuvchi kitob), Chahor Kitob, shuningdek, Narshaxiy, Ibn Sino, Hofiz Amir Navoiy, Bedil, Hoja Ismatulla va boshqa alomlarning kitoblari XX asrgacha yetib keldi. Qur'oni Karim oyatlari, Hadisi Sharif namunalari hamda, o'zbekcha, arabcha baytlarni masjidlarda, madrasa va maqbaralarda ko'rish mumkin. Mis, qozon, jom, shamshir, xanjar, piyola, choynak, so'zana, ro'molcha, kallapo'sh, to'n, taxti-ravon, ustunlar, zargarlik buyumlariga oyat, yohud baytlar naqsh etilgan. Albatta, mazkur nafis bitiklar kishini o'ziga jalb qilib, mazmun-mohiyati uning ma'aviyatiga katta ta'sir o'tkazgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., "O'zbekiston" 2016. 14-b.
2. Habibillo Solih. "Naqshin yozuvlar" // -T., O'zbekiston matbuoti. 2003, 2-son.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1,2,3,...12-jildlar. -T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
4. Karimov Sh., Sodiqov M. va boshqalar. "O'zbekiston madaniyati tarixi" – T., 1995. 32-b.
5. A.Muradov. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan// -T., Fan nashriyoti. 1971. 12-b.

«ЛАЗГИ» В РЕПЕРТУАРЕ МОСКОВСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ АКАДЕМИИ ХОРЕОГРАФИИ

Анна АНТРОПОВА,

старший преподаватель кафедры народно-сценического, историко-бытового и современного танца, Московская государственная академия хореографии, г. Москва, Россия



Аннотация. Народные танцы в системе обучения народно-сценическому (характерному) танцу в Московской государственной академии хореографии занимают важное место. В репертуаре академии есть Хорезмский танец «Лазги». В статье приводятся данные о постановках танца «Лазги» в академии. Автор статьи отмечает значимость показа Большим театром Узбекистана имени Алишера Навои узбекского национального балета «Лазги. Танец души и любви» на Исторической сцене Большого театра России.

Ключевые слова: «Лазги», Московская государственная академия хореографии, Алишер Хасанов, Камилла Тохтасимова, балет «Лазги. Танец души и любви»

Annotation. Folk dances occupy an important place in the system of teaching folk stage (character) dance at the Moscow State Academy of Choreography (the Bolshoi Ballet Academy). The academy's repertoire includes the Khorezm dance "Lazgi". The article provides data on the performances of the dance "Lazgi" at the academy. The author of the article notes the importance of the performance by the Bolshoi Theater of Uzbekistan named after Alisher Navoi of the Uzbek national ballet "Lazgi. Dance of Soul and Love" on the Historical Stage of the Bolshoi Theater of Russia.

Keywords: "Lazgi", Moscow State Academy of Choreography, the Bolshoi Ballet Academy, Alisher Khasanov, Kamilla Tokhtasimova, "Lazgi. Dance of Soul and Love"



Народные танцы входят в программу обучения народно-сценическому (характерному) танцу в Московской государственной академии хореографии (МГАХ). Они важны для воспитания танцевальной культуры будущих артистов балета и освоения ими национального разнообразия танцевальной лексики. Преподавателями МГАХ накоплен «колоссальный опыт по отбору, классификации и систематизации движений в сфере сценической интерпретации различных народных танцев» [1], студенты изучают танцы народов разных стран [2, с. 38-41].

Знакомя студентов с народными танцами Узбекистана, мы говорим об основных школах узбекского танца, характерные особенности которых обобщила в книгах-учебниках «Ферганский танец» (1973), «Хорезмский танец» (1975), «Бухарский танец» (1977) Народная артистка Узбекистана, известная танцовщица, хореограф, исследователь Розия Каримова.

Всемирно известный Хорезмский танец «Лазги» есть в репертуаре Московской государственной академии хореографии. В 2008 году хореограф Алишер Хасанов поставил в МГАХ Хорезмский танец «Лазги», первым исполнителем которого стала студентка Эльвира Исмаилова. Учитывая исполнительские возможности студентов, танец изучается в рамках сценической практики, лучшие исполнения включаются в программы концертов в Учебном театре МГАХ и государственных экзаменов по народно-сценическому (характерному) танцу. Например, «Лазги» в концертах и на экзаменах успешно исполнили студентки Наталья Филина, Мария Шувалова. В ноябре 2019 года «Лазги» на концерте в МГАХ танцевала студентка Сэмба Кана (Япония) – Алишер Хасанов сам репетировал с ней, уточнял все нюансы, тонкости танца.

Хочется отметить, что репертуар МГАХ в последние годы пополнил-

ся таким танцем, как «Андижанская полька» (музыка народная, хореография К. Ш. Тохтасимовой). В 2018-2020 годы представитель танцевального искусства Узбекистана Камилла Тохтасимова обучалась в магистратуре МГАХ, где 2 декабря 2019 года она успешно провела семинар по узбекскому танцу. Танец «Андижанская полька» Камилла Шухратовна поставила со студентами I курса МГАХ (класс педагога Светланы Юрьевны Тиглевой). Этот танец был показан 6 марта 2020 года на концерте в Учебном театре нашей академии и тепло встречен зрителями. Стремясь помочь будущим артистам балета, педагогам и зрителям увидеть и почувствовать всю красоту узбекского танца, Камилла Шухратовна подарила МГАХ сценические костюмы для исполнения узбекских танцев, и мы благодарны ей за профессиональный опыт и преданность делу сохранения всей красоты танцевального наследия. На концерте в МГАХ 7 марта 2024 года уже в национальных узбекских костюмах успешно выступили ученики 5-го года обучения (педагог Татьяна Витальевна Пашкова).

10 сентября 2023 года Большой театр Узбекистана имени Алишера Навои с успехом представил в Москве на Исторической сцене Большого театра России национальный балет «Лазги. Танец души и любви». Это важное событие в развитии творческих и дружеских связей в сфере культуры России и Узбекистана посетила и отметила прекрасными отзывами Председатель Совета Федерации Федерального собрания Российской Федерации Валентина Ивановна Матвиенко [3]. Балет «Лазги. Танец души и любви» безусловно способствовал росту интереса к содержанию и истории танца «Лазги», о чём свидетельствуют отзывы в прессе [4; 5].

Студент бакалавриата Московской государственной академии

хореографии, артист Большого театра России Леонид Чистяков, которому посчастливилось посмотреть балет «Лазги. Танец души и любви», делаясь своими впечатлениями в беседе с автором данной статьи, так охарактеризовал спектакль: «Восторг! Красочный хорезмский орнаментальный колорит, обрамлённый в современную форму с яркими спецэффектами, даёт полное погружение, атмосферность, реалистичность. Органичное сочетание академического и народного искусства. Ярко, свежо, оригинально, современно, колоритно!»

Московская государственная академия хореографии ведёт свою историю с 1773 года и отнесена к особо ценным объектам культурного наследия народов Российской Фе-

дерации. В современных условиях мы бережно сохраняем лучшие традиции нашего хореографического искусства и образования – это часть отечественной культуры и общечеловеческого культурного наследия. Нам близки и понятны цели Международного фестиваля «Лазги», которому посвящена данная конференция. В 2019 году для нас, как и для наших узбекских коллег [6], тоже значимым событием стало включение хорезмского танца «Лазги» в список нематериального культурного наследия ЮНЕСКО.

«Что, если бы вся красота и традиции «Лазги» существовали в воплощении молодой женщины, которую мы бы звали «Душа»? Длится ли веками до наших дней история любви к танцу и искусству?...» [4].

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Пашкова Т. В. Народные танцы в системе обучения народно-сценическому (характерному) танцу в МГАХ. Часть первая // Academia: Танец. Музыка. Театр. Образование. 2023. № 1 (55). С. 20-38. URL: <https://elibrary.ru/contents.asp?id=54946357>
2. Пашкова Т. В. Народные танцы в системе обучения народно-сценическому (характерному) танцу в МГАХ. Часть вторая // Academia: Танец. Музыка. Театр. Образование. 2023. № 2 (56). С. 27-44. URL: <https://elibrary.ru/contents.asp?id=54935962>
3. Каратаев Д. Артисты балета из Узбекистана выступили на сцене Большого театра // «МИР24»: Информационно-аналитический интернет-портал. Дата публикации: 11.09.2023. URL: <https://mir24.tv/news/16564690/artisty-baleta-iz-uzbekistana-vystupili-na-scene-bolshogo-teatra>
4. Лазги – танец души и любви [Большой театр России. Историческая сцена. 10 сентября 2023 г.] // Большой театр: сайт. URL: <https://bolshoi.ru/performances/guest/lazgi>
5. Галайда А. Большой театр Узбекистана показал в Москве «Лазги. Танец души и любви» // Российская газета: Интернет-портал. Дата публикации: 14.09.2023. URL: <https://rg.ru/2023/09/14/reg-cfo/lazgi-v-pesochnyh-barhanah.html>
6. Ташкенбаев П. И. Хорезмский танец «Лазги» – объект нематериального культурного наследия ЮНЕСКО // Academia: Танец. Музыка. Театр. Образование: Специальный выпуск. IV Всероссийская научно-практическая конференция с международным участием «Актуальные вопросы развития искусства балета и хореографического образования» (Россия, Москва, МГАХ, 28.05.20): Доклады и тезисы. 2020. № 2 (50). С. 56-57. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44508136>



“XORAZM LAZGI RAQSI”: MUSIQIY MEROS VA TARIXIY TALQIN

Azizjon ZOKIROV,

Yunus Rajabiy nomidagi
o'zbek milliy musiqa
instituti o'quv ishlari
bo'yicha prorektori



Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm musiqiy merosining “Lazgi” raqs turkumining shakllanish bosqichlari va taraqqiyotidagi o'rni hamda ahamiyati tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: o'tmish, musiqa, Sadokov, musiqiy arxeologiya, “Lazgi”, qoyatosh, yodgorlik meros, tarix, milliy qadriyat, Qo'yqirilganqalla, terrakot.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение музыкального наследия Хорезма на этапах становления и развития танцевальной труппы “Лазги”.

Ключевые слова: прошлое, музыка, Садоков, музыкальная археология, “Лазги”, камень, памятник, наследие, история, национальная ценность, Койкирилганкала, терракота.

Annotation. This article examines the role and importance of Khorezm's musical heritage in the stages of formation and development of the “Lazgi” dance troupe.

Key words: past, music, Sadokov, musical archeology, “Lazgi”, stone, monument, heritage, history, national value, Koykirilgankala, terracotta.

Biz ona yurt o'tmishini, san'at tarixini, madaniy merosni ilmiy tadqiq qilish orqali olam va odam, inson va jamiyat munosabatlarini o'rganamiz, ular haqidagi tasavvurlarimizni boyitamiz. Tarixni anglash orqali bugungi kuni-mizning mohiyatini chuqurroq tushu-namiz, ertangi kunga maqsadlarimiz-ni, orzu – umidlarimizni belgilaymiz. Taraqqiyotning yangi davri ostonasi-da turar ekanmiz, milliy madaniyat-imizning ta'sirchanlik qudratini, tarbi-

yaviy-ma'naviy – ma'rifiy ahamiyatini yana-da teran his qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida: “Milliy madaniyatimiz rivojida muhim o'ringa ega bo'lgan musiqa va raqs san'atini ravnaq toptirishga qaratilgan chora – tadbirlar amalga oshiriladi”[1], deya alohida ta'kidladi. Darhaqiqat, milliy madaniyatimiz ko'zgusi - musiqa va raqs san'atining tarixi ham, shakllanish bosqichlari, taqdiri va taraqqiyoti ham mushtarak. Ular bir – birini to'ldirib, o'tmish, bugun va istiqbolni bog'lab turadi.

Asriy an'analarga ega o'zbek musiqa san'atining ko'hna ildizlarini, shakllanish bosqichlarini, rang – barang ijrochilik uslublarini o'rganishda, ilmiy tahlil qilishda Abdurauf Fitratning “O'zbek musiqasi to'g'risida” nomli risolasi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Buyuk ma'rifatparvar olim to'g'ri ta'kidlaganidek, “Biz, o'zbeklar o'z musiqamizning judayam boy ekani to'g'risida ko'p gapirdik. Ham gapirib turamiz. Bu ishimiz yomon emas. Albatta, u bir musiqaki, yolg'iz o'zining klassik qismida uch yuzdan ortiq kuy saqlagan. Bir musiqaki, bu kun o'n beshga yaqin cholg'uning egasidir. Bir musiqaki, o'zining tekshirishga loyiq nazariyasi, usuli bor. Uni maqtaganlar, albatta, to'g'ri so'zlaydilar” [2].

Ayniqsa, ma'rifiy — tarixiylik tamoyiliga ega Xorazm suvorolari, qo'shiqlarining kuy, ohang va tuzilmalari nihoyatda teran va betakrordir. Ularda millat tarixi, qadriyatlarini mujassam. Milliy uyg'onishning tarixiy bosqichlarida o'tmishga xolis nazar tashlash ehtiyoji o'sib boraveradi. Ya'ni, tarixni anglash va

falsafiy tushunish orqali insonning jamiyatga to'g'ri munosabati shakllanib boradi.

Xorazmning ko'hna musiqa madaniyatini, sozlari va cholg'ularini qadimiy yodgorlik, umuminsoniy qadriyat sifatida tadqiq qilgan, ularning tarixini xarobalar ostidan topib, marjondek ipga tizgan, bu ezgu ishga umrini baxshida etgan olimlardan biri rossiyalik qadimshunos – musiqashunos olim, professor Ryurik Sadokov edi (1929 - 1984). U ustoz – akademik Sergey Tolstovdan tarixni his qilishni, qadimiyatning eng kichik zarrasiga ham noyob boylik, buyuk mo'jiza deb qarashni, madaniy merosni qadrlashni o'rgandi.

Talabalik yillarida mashhur ekspeditsiyaga qabul qilingan bo'lajak olim qum bosgan qal'alar qoldiqlaridan topilgan oddiy sopol sinig'ida ham Xorazmning tarixini, xalqning armonlarini, yuksak madaniyatini, umuminsoniy qadriyatlarini ko'rdi. Professor R.L.Sadokov Xorazm kuylarining o'ziga xosligi, uyg'unligi, bir-biriga ta'siri, ijro etish usullari bilan qiziqadi, ular haqida ham fikr yuritadi, lekin olimni ko'proq musiqa arxeologiyasi o'ziga tortardi.

“Musiqiy arxeologiya” termini ilk bor musiqashunos V.A. Chechottning 1890 yilda Kiyevda chop etilgan “Musika tarixi” kitobi orqali fanga kiradi. “Musiqiy arxeologiya – qadimiy obidalarining musiqiy majmuasi” [3], degan edi R.L.Sadokov. Olimning nazdida – musiqiy arxeologiya – fanning arxeologiya, musiqashunoslik, tarixiy va zamonaviy etnografiya sohalari negizida shakllangan alohida fan.

U musiqa ijtimoiy hodisa sifatida inson dunyoqarashini o'zgartirishda ham katta imkoniyatlarga



ega, degan fikrni ko'p takrorlaydi. Olimning turli yillarda nashr etilgan "Древнехорезмийский инструментальный ансамбль", "Путешествие в Хорезм", "Музыкальная культура древнего Хорезма"(1970), "Тысяча осколков золотого саза" (1971), "Путешествие в глубь веков в поисках музыки" (1968), "Музыка на острие ножа. Новое о древнем Хоразме"(1970), "Музыкальная археология древней и средневековой Средней Азии: ударные инструменты" kabi Xorazm musiqa san'ati va sozlari haqidagi asarlari muhim ilmiy tadqiqot sifatida nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon musiqashunosligi, san'atshunosligi tarixi va taraqqiyotida ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olim "Qadim Sharq – insoniyat madaniyatining beshigi" [1], deydi faxr bilan. Mazkur tadqiqotlar R.Sadokovning keng ko'lamli ilmiy - ijodiy faoliyatidan darak beradi, uning shaxsi timsolida qadimshunos, filolog, jurnalist, manbashunos, sharqshunos o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Olim sobiq ittifoq Fanlar Akademiyasida joylashgan Xorazm arxeologik – etnografik ekspedit-siyasi laboratoriyasidagi sopol parchasini shunday tasvirlaydi: "Kashtali yostiqqayonboshlagan, o'ng qo'lidagi qadahni oldinga uzatgan Xorazm shohi. Shohning orqa tomonida uchburchak shakldagi musiqa asbobi ko'rinib turibdi. Sozandaning barmoqlari cholg'u asbobining torlarida. Manzara shunchalar tiniq, ishonchli va tabiiyki, xuddi hozir tarixga muhrlangan davrning shovqin – suroni, shohning ovozi eshitiladi, cholg'u esa yurakka juda ham yaqin, ko'hna musiqani chala boshlaydi. Xayolimda jonlana boshlagan holat-

ni buzib qo'ymaslik uchun, chiroqni yaqinroq olib kelaman. Bu qadimda Osiyo xalqlari orasida nihoyatda urf bo'lgan, keyin qaylargadir izsiz yo'qolgan, burchaklari aniq ko'rinib turgan arfa edi"[2]. Chang ostida qolgan tarixning bu noyob parchasi Qo'yqirilganqal'adan topilgan bo'lib, eramizdan avvalgi IV – III asrga mansub edi.

O'tmishning qadim qal'alar qoldiqlari ostida qolib ketgan haqiqatlarini tiklash orqali eng avvalo tafakkurimizni boyitamiz, dunyoqarashimizni kengaytiramiz. Professor R.L.Sadokov "Музыкальная археология древней и средневековой Средней Азии: ударные инструменты" maqolasida doira, nog'ora kabi zarbli cholg'ular haqida to'xtalib o'tar ekan, el orasida mashhur bo'lgan mohir sozanda Usta Olim nomini tilga oladi. To'g'ri, biroz yanglishib, ulug' san'atkorning familiyasini Kamolov deb yozadi. Muhimi bu emas, muhimi olim terrakotlardagi cholg'ularning rasmlari yoki siniq parchalarini topish, fanga kiritish bilangina kifoyalanmasdan, uning bugungi kun bilan bog'liq tomonlarini izlayapti.

"Lazgi" turkumi ritmdan, ya'ni zarblardan boshlanadi. To'qqiz "Lazgi"ning musiqasida, ifoda usullari va uslublarida doiraning o'rni beqiyos."Musiqqa" lug'atida unga shunday izoh berilgan:

Doira – (o'zb. dapp, childirma, chirmanda) – o'zbek, tojik va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg'u asbob.diametri taxminan 400 mm bo'lgan, gardishi ilgari uzum zangidan qilingan; so'nggi vaqtlarda yog'ochni egib yo kichik yog'och bo'laklarini bir-biriga ulab yasaladi. Doira gardishiga buzoq yoki baliq

terisi qoplandi, qirqdan ortiq halqachalar taqilib, bular Doirani chalganda qo'shimcha sado beradi. [1]

Tuproqqal'adan topilgan miloddan oldingi 2 – asrga mansub terrakotlarda doirachi ayollar tasvirlangan. Olimning fikricha, qal'adagi “muqaddas shohlar qasridagi sozanda va raqqosalar, ularning sahna liboslari, qo'llaridagi zarbli cholg'ular dunyoning eng qadimgi madaniyati hisoblanadi” [2]. Qadim madaniyatni o'rganish olimga kuch-g'ayrat

baxsh etadi, uning fikrlarini charxlaydi. Sharq adabiyoti va madaniyati tarixini o'rganar ekan, olim ulardan hikmat va falsafa izlaydi bilan ham jiddiy shug'ullanadi. “Ulug' shoir Alisher Navoiy bejiz “Sab'ai sayyor” dostonida Xorazm musiqa san'ati haqida gapirmaydi. Shoirning ta'rificha, dostonidagi xorazmlik mashhur qo'shiqchi va sozandaning “san'atiga yer yuzida hech kim teng kelolmaydi” [3]. Odatda, musiqa san'atining asl mohiyatini belgilovchi omillarning muayyan shakllari tarixiylik mezonida yana-da teranroq o'z ifodasini topadi. Insoniyatning sog'lom yashashi, sog'lom fikrlashi, ezgulik va go'zallikka intilishida ham musiqa madaniyati poydevor vazifasini o'taydi. Binobarin, musiqa ohang va kuylar orqali insonning

YANGI O'ZBEKISTON ZAMONAVIY ILG'OR DAVLATGA AYLANISHI UCHUN MUSIQA VA RAQS TA'LIMINI YANGICHA TASHKIL ETISH, YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDA FAOL ISHTIROK ETISHLARI UCHUN ZARUR SHART- SHAROITLAR YARATILMOQDA.

makon va zamonaga, tabiat hodisalariga, jamiyat va hayotga, kelajakka munosabatini ifodalaydi.

“Xorazm lazgi raqsi”ning tadqiqiga oid ko'plab vosita va mezonlar qatorida milliy musiqa tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tahlillar olib borish eng dolzarb masalalardan biridir. Alloma Abdurauf Fitratning fikricha, “O'zbek musiqasining asoslarini belgilash, uni tashkil etgan unsurlarni aniqlash, kechirgan davrlarni, butun sabablari bilan ochiq tayin etish

va natijada obyektiv, ilmiy xulosa chiqarish, o'zimizdan olim musiqa-shunoslar yetishmaguncha mumkin emas. Shu bilan baravar, bizda olim musiqashunoslar yo'q deb, milliy musiqa sohasida ilmiy va tarixiy tatabbu'otga kirishmasdan tura olmaymiz, mumkin bo'lg'an darajada bu sohada ishlash, to'plang'an va ishlangan ma'lumotlarni matbuotga chiqarish lozimdir. Hozir to'plang'an materiallarda ilmiy usul yog'idan kamchiliklar bo'lsa bo'lur, lekin o'z vaqtida to'plangan bu materiallar kelgusidagi ilmiy ishlar uchun ko'p yordam berur, biz bunga ishonamiz” [4].

Serqirra iste'dod sohibi R.L.Sadokov to'plagan materiallar bugungi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim mavzu bo'lishi aniq. U yaratgan



musiqiy arxeologiya ilmiy maktabi, u qoldirgan meros hozirgi kunga kelib, Xorazm musiqa va raqs san'ati tarixiy bosqichlarini o'rganishda yosh olimlarning olib borayotgan izlanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekiston zamonaviy ilg'or davlatga aylanishi uchun musiqa va raqs ta'limini yangicha tashkil etish, yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Zero, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan barkamol, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egalagan, irodasi baquvvat, imoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli yetuk kadrlar hal etadi. Jahon mamlakatlari tajribalaridan ijodiy foydalanish va hayotga joriy etishdan iborat amaliyot yo'lini izchil davom ettirish zarur.

Madaniy meros har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyoti uchun asos bo'ladi, porloq istiqbol uchun o'sib keleyotgan yosh avlod ongu shu urida ishonch uyg'otadi. Shuning barobarida dunyoni jaholatdan, urush mojaralaridan, diniy qarama-qarshiliklardan asrab, qutqarib kelgan ma'naviyat, madaniy meros bundan keyin ham o'zining eng asosiy ta'sir kuchini saqlab qoladi. Ijodiy-ilmiy izlanishlarga keng yo'l ochilgan, ya'ni ilm va ijod ahlini ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan rag'batlantirishning hayot sinovidan o'tgan vositalarini ishga sola olgan davlat va mamlakat istiqboli porloq bo'lishi tarixdan ma'lum. Ya'ni, "Tuproqqal'adan topilgan nog'ora chalayotgan ayol surati Xorazmda eramizdan oldin zarbli cholg'ular bo'lganligi haqidagi asosiy dalildir"[1].

Musiqa va raqssan'ati uyg'unligini mukammal o'rganish va uning yan-

gi tarixini yaratish Yangi O'zbekiston san'atshunoslari, musiqashunos va raqsshunoslari oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Akademik N.I.Konradning fikricha, "Markaziy Osiyo eng qadimgi davrlardan oq insoniyat sivilizatsiyalari yo'llari tutashgan yoki kesishgan maskanda joylashgan, uning o'zi ham ana shu sivilizatsiyaning markazlaridan biri bo'lgan. Ma'naviy taraqqiyot va axloqiy tamoyillar shunday asoslarga tayangan holda, asrlar chegarasidan hatlab o'tib, keyingi rivojlanishni yuzaga keltirdi." [1] Milliy musiqa va raqs san'atida tabarruk tuproq va muhit bilan bog'liq inson umrining turli-tuman qirralari, his-tuyg'ulari va ichki iztiroblari aks etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'rsida" gi Qarori ma'naviy-ijtimoiy sohada dasturi amalga aylandi. Unda "o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash"[2] masalasiga alohida e'tibor berilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan mamlakatimizda milliy musiqiy merosga munosabatda vorisiy aloqadorlik tamoyillariga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda. Insonning komillikka erishuvi haqidagi tasavvurlar har qanday davrdagi g'oyalar, konsepsiyalarning asosini tashkil etishi hisobiga jamiyat hamisha yuksak taraqqiyotga qarab intiladi. Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning ustuvor maqsadi ham shundan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. O'zA, 2023 yil, 23 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yana-da rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi Qarori. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2022 yil, 4 fevral, 25 son.
3. Fitrat A. O'zbek musiqasi to'g'risida.Tanlangan asarlar. Toshkent.: "Ma'naviyat", 1998.
4. Karomatov F. Maqomat va zamonaviylik."Sovet O'zbekistoni san'ati" jurnali, 1979.1-son.B.-26-27.
5. Конрад Н.И. Запад и Восток. М.: Изд. Главная редакция восточной литературы,1972.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lazgi" xalqaro festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi Qarori, O'zA, 2020 yil 28 sentyabr.
7. Садоков Л.Р.Древнехорезмийский инструментальный ансамбль (по материалам росписей Топрак-калы). История, археология, этнография Средней Азии. М.: "Наука",1968.
8. Qodirov M. "Avesto" va tomosha san'atlari. T.: "Fan", 2001.
9. Qilichev T. Lazgi raqsi turlari. Tanlangan asarlar. Urganch, 2020.
10. Одуев С.Тропами Заратустры. М.: "Наука", 1980.
11. Матёкубова Г. Тохтасимов Ш. Ҳамроева Ҳ. Хоразм "Лазги" рақси: тарихи ва тавсифи. Т.: 2022.
12. Садоков Р.Л. Древнехорезмийский инструментальный ансамбль М.: 1980,
13. Садоков Р. Л. Путешествие в Хорезм.М.: 1970;
14. Садоков Р. Л.Музыкальная культура древнего Хорезма. М.:1970,
15. Садоков Р. Л. Тысяча осколков золотого саза.М.: 1971,
16. Садоков Р. Л. Путешествие в глубь веков в поисках музыки. М.:1968;
17. Садоков Р.Л. Музыка на острие ножа. Новое о древнем Хоразме. М.:1970.
18. Садоков Р. Л. Музыкальная археология древней и средневековой Средней Азии: ударный инструменты. М.: 1971.



“DO‘LAN” UYG‘UR RAQSINING “LAZGI” RAQSI BILAN USLUBIY O‘XSHASHLIGI

Gulziraxon ABLAT,

O‘zbek milliy maqom
san’ati markazining
katta ilmiy xodimi



Annotatsiya. Ushbu maqolada Uyg‘ur raqslari orasida uzoq tarixga ega bo‘lgan xalq o‘yinlaridan biri “Do‘lan” raqsining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilingan. Do‘lan raqsida ijrochilarning tana ritmi, raqsining strukturaviy turlari, raqsning stilistik xususiyatlari ochib berilgan. Yana bir jihati - ushbu mashhur raqsning Xorazm xalq “Lazgi” raqsi bilan o‘xshash jihatlari qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: “Do‘lan” raqsi, “Do‘lan Mashrap”, Lazgi, Chikitma, Sanam, Selikai, Selma. “Lazgi”, xorazmcha.

Abstract. In this country, the formation and development of the “Dolan” dance, one of the folk dances with a long history among Uyghur dances, is analyzed. Dolan’s dance reveals the rhythm of the performers’ body, structural types of dance, and stylistic features of the dance. Another aspect is that this folk dance is compared with the Khorezm folk dance “Lazgi”.

Key words: Dance “Dolan”, “Dolan Mashrap”, Lazgi, Chikitma, Sanam, Selikay, Selma. “Lazgi”, according to Khorezm.

Аннотация. В данной статье анализируется становление и развитие танца «Долан», одного из народных танцев с многовековой историей среди уйгурских танцев. В танце Долана раскрываются ритм тела исполнителей, структурные типы танца и его стилистические особенности. Другой аспект заключается в том, что этот народный танец сравнивают с хорезмийским народным танцем «Лазги».

Ключевые слова: Танец “Долан”, “Долан Машрап”, Лазги, Чикитма, Санам, Селикай, Селма. «Лазги», по хорезмийский.

Kirish

Har bir san'at sohasi hayotimizni badiiy obraz orqali ifoda etadi. Shu qatorda raqs ham san'at turlari ichida kishilik jamiyati rivojida alohida o'rin tutuvchi bir yo'nalishdir. "Raqs san'ati - ijod ruhiyatini, his-tuyg'ularni, fikrni so'zsiz, faqat harakatlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetkazishga asoslangan san'at turidir. O'zbek raqs san'ati tarixida Xorazm maktabi juda muhim o'rin egallaydi. Xorazm raqsi - o'zbek xalq raqsining bir ajralmas qismi, faxri va g'ururidir" [1]. Xorazm necha asrlardan buyon o'z buyukligini saqlab kelgan va tarix sahifasidan joy olgan o'lkadir. Xorazm raqs san'ati deganda avvalo "Lazgi" hayolimizga kelishi tayin. Afsonaviy "Lazgi" Xorazm raqsi bu nafaqat raqs, balki his-tuyg'ularni, hissiyotlarni, dunyoni anglashni ifoda etishning o'ziga xos uslubi, odamlarning ruhiyatidir. "Lazgi" harakatlarining o'ziga xos xususiyati - bu yarim bukilgan oyoqlar, yelkalar va qo'llar salgina silkinishining ustunligi, qo'llarning "tebranadigan" harakatlari, oyoqlar bilan o'ziga xos harakatlar hamda bo'yin va boshning o'ngdan chapga va chapdan o'ngga mutanosib harakatlanishidir. Xorazm raqsini ijro etish paytida yuz ifodalari nihoyatda ta'sirchan va hissiyotli ko'rinish oladi. Kuy kichik muqaddima va 3 qismdan iborat, 6/8 o'lchovli gul ufori usulida ijro etiladi. Barcha raqs turlari o'z ichida bir nechta turlarga bo'lingani kabi "Lazgi" raqsining ham turlari bor. Bu raqsning turlari xalqning urf-odatlarini, an'anayu marosimlariga qarab shakllanib borgan. O'zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova va O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zosi Sharqiya Eshjonovalarning "Lazgi" nomli kitobida "Lazgi" raqsining 9 ta turi sanab o'tilgan. Shulardan "Masxaraboz lazgi", "Qayroq lazgi", "Dutor lazgi", "Surnay lazgi", "Saroy lazgi", "Changak lazgi",

"Xiva lazgi", "Garmon lazgi" kabi turlarini qayd etish mumkin. [2]

Uyg'ur va o'zbek xalqlari raqslarida juda ko'p o'xshashliklar bor. Bu monandliklar nimalarda ko'rinadi? Birinchidan, har ikki raqs yakka holda va jamoa bilan ijro etiladi. Ikkinchidan, har ikki raqs mohiyatida mehnat jarayoni, mehnat hosilidan zavqlanish, bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish, madaniy hordiq chiqarish, chigilyozdi holatlari o'z aksini topgan. "Lazgi" odatda katta bayram dasturi finalida ijro etilsa, "Do'lan Mashrap" ham tantana avjida namoyish etiladi. "Lazgi"da ayollar bilan erkaklar birgalikda raqs ijro etadi. Raqs jamoasi ichida bosh raqqos bo'ladi, eng jozibali harakatlar undan kutiladi, jamoa unga nisbatan tobe bir maqomda harakatlanadi. Bunda har bir ish va tadbirning o'z boshlig'i, rahbari, yo'l boshchisi bo'ladi, degan ma'no ifodalanadi. Ayni shu holatni "Do'lan" raqsi kompozitsiyasida ham ko'ramiz.

Asosiy natijalar va tavsiyalar

Uyg'ur raqslari orasida uzoq tarixga ega bo'lgan xalq o'yinlaridan biri bu "Do'lan raqsi"dir. "Do'lan" uyg'ur raqsini erkak, ayol, qari va yosh birdek sevadi. U musiqa uslubi va ijro etilish jihatidan nihoyatda yuksak qiymatga ega. Ushbu maqolada Shinjon ashula va raqs san'ati teatrining "Do'lan Mashrap" o'yini kompozitsiyasi tahlil etiladi.

"Do'lan" atamasi birinchi marta qadimgi davrlarda o'zini o'zi e'lon qilgan etnik ozchilik nomida paydo bo'lgan. Bu odatda, janubiy Shinjondagi Tarim havzasi va Yarkan daryosi havzasidagi ayrim aholi punktlaridagi odamlarning o'zini o'zi e'lon qilgan nomiga ishora qiladi. Ko'rinib turibdiki, "Do'lan" so'zi dastlab geografik nom bo'lgan. Shinjon "Do'lan raqsi vatani" sifatida tanilgan. Xitoy tilidan tarjima qilinganda bu vohada birga yashaydigan vatandosh-



larga mos keladigan “guruhlar” degan ma’noni anglatadi. Talaffuzi bir xil, ma’nosi har xil bo’lgan xitoycha harf-

larning tarjimalari birin-ketin paydo bo’lganligi sababli tarixda asta-sekin turli tarjimalar paydo bo’ldi. [3]



Qadim zamonlardan beri Takli Makan cho’lining chekkasidagi Maygaiti okrugi aholisi o’zlarini “Do’lan xalqi” deb ataydilar. “Meshrep” (Mashrab) so’zi arab tilidan olingan. Bu “odatlar”, “xarakter” yoki “ichish joyi” degan ma’noni anglatadi. Hozirgi uyg’ur tilidagi kengaytmada “yig’ilish joyi” ma’nosi va dam olish faoliyatini bildiradi.

Do’lan hududida qo’shiq, raqs va musiqani o’zida birlashtirgan xalq fikri keng tarqalgan: “Bir Do’lan odami yolg’iz qolsa jim o’tiradi, agar ikki do’lanlik birga bo’lsa qarama qarshi raqsga tushadi, agar uchdan ortiq Do’lan odamlari to’plansa, Mashrabxonlik boshlanib ketadi”. “Uch kishi” ko’p sonli ijrochini anglatadi, bu Do’lan Mashrapni bildiradi.

Makit hududi “Do’lan raqs vatani” sifatida tanilgan bo’lsa-da, Yakan, Ma-

ralbishi va Yarkand daryosi qirg’og’idagi Turfon havzasida Do’lan raqsining ajoyib namunalarini ko’rish mumkin. Chunki “Do’lan” raqsi uyg’urlar uchun bayramlarni nishonlash, kundalik dam olish va o’yin-kulgi qilishdek muhim tadbirlarga juzviga aylangan. Yillar o’tib, Uyg’ur xalqining madaniyati rivojlanishi bilan Do’lan raqsi ham asta-sekin takomillashib, ommalasha boshladi. Hatto Xitoyda yashovchi ko’plab aholi (uyg’ur bo’lmaganlar) “Do’lan” raqsini ijro eta boshlagan. [4]

Tirishqoq va mehnatkash Do’lan xalqi G’arbiy mintaqaning qadimiy musiqa va raqslarining madaniy mohiyatini mukammal meros qilib oldi. Do’lan raqs musiqa asta-sekin sanban, o’rta temp va allegrodan avjiga chiqadi va raqsda hayotdagi mehnat jarayonlari aks etadi. Asar “San-



“Sanam” – Uch qadam va bir koʻtarilish harakatidan iborat boʻlib, quvnoq, ammo sokin raqs turi hisoblanadi. Sanam raqsi juda nafis, ammo chaqqon ijro etishni talab qiladi. Raqqos uch qadam tashlab, oyoqlarini koʻtaradi. Uchinchi qadamda qoʻllari bilaklari atrofida

ban” uvertyrasiga qoʻyilgan sokin maqom bilan boshlanadi, soʻngra “Chiqtiman”ning birinchi bosqichi, “Sanam”ning ikkinchi bosqichi, “Selikay”ning uchinchi bosqichi, kulminatsion bosqich va yakuniy bosqich boʻlinadi.

Doʻlan raqsi ijro ketma-ketligi jihatidan quyidagi 4 guruhga boʻlinadi:

“Chikitma” – aniq baraban va ritm bilan ijro etiladi. Raqsni faqatgina ikki kishi ijro etadi, ijrochining sherigiga jinsi boʻyicha hech qanday cheklolar qoʻyilmagan boʻlib, ular sahna-ga qoʻshiq kuylash va ritmga mos daf joʻrligida kiradilar. Ayollar odatda bir qoʻlini yuqoriga koʻtarib, ikkinchi qoʻlini orqasida ushlab turishadi. Bu harakat qadim zamonlardan beri ov paytida paydo boʻlgan, odamlar oʻlja-ni yoʻnalishini koʻrish uchun oldingi yoʻlni yoritish maqsadida mashʼalalar-ni baland tutganlar. Erkaklar harakati biroz farqlanib, ular asosan qoʻllarini yoygan holda, toʻsiqlarni ochib, jaso-rat bilan oldinga siljishini anglata-di. Harakat ritmi $3/4$ zarbdan iborat boʻlib, har bir zarb oldinga, yonga yoki orqaga qadam qoʻyadi va uchinchi zarbni bosib, tiniq ovoz chiqaradi, bu “Chikitma”ning kuchli va kuchsiz his-sini toʻliq namoyon qiladi.

dumaloq chiziq chizib, doira qoʻl ho-latiga etib boradi. Qoʻllar chap va oʻng oʻrtasida almashadilar. Shuningdek, beshinchi holatda – bilakni bogʻlash uchun qoʻllarini orqaga burishlari mumkin. Oyoqlar orqaga tortiladi, ik-kala qoʻlning barmoqlari chertadi va boʻyin harakati muvofiqlashtiriladi. Oyoq qadamlari “Uch qadam va bir koʻtarilish”ga asoslangan boʻlib, oyoq-qoʻl harakatlari ham xilma-xildir. Bir qoʻl bilan bilagingizni dumaloq chiziq bilan oʻrashingiz va barmoqlaringizni burishingiz mumkin. Erkak raqqos-lar, odatda, bir qoʻlini koʻkragiga, ik-kinchi qoʻlini orqaga qoʻyib, uygʻur erkaklarining goʻzalligini koʻrsatuvchi koʻplab burilish harakatlarini bajara-di. Bundan tashqari, u tiz choʻkish va burilish, tekis burilish kabi baʼzi texnik harakatlarni ham oʻz ichiga oladi.

“Selikay” – Barcha raqqoslar katta doira hosil qiladilar va avval soat mili-ga teskari, keyin esa soat yoʻnalishi boʻyicha aylanadilar. Ohang nihoyat-da qiziqarli boʻlib, keyingi “Selma”ga yoʻl ochadi. Ritm $2/4$ ni tashkil etadi, bu avvalgi ikki kishidan iborat guruh-dan farq qiladi. Hamma xursandchilik bilan yigʻiladi, bu esa Doʻlan raqsining “jamoat yigʻilishi” maʼnosini oʻzida mu-jassamlashtiradi. Shu bilan birga, qa-



dimiy ov paytida odamlar birgalikda o'lja tutish uchun harakat qilganlari, ov natijasidan xursandligi ham ifodalanadi. Bu etnografik jihatdan tarixiy ahamiyatga egadir.

"*Selma*" – oldindagi katta doiraga asoslanib, bir qo'l mushtga aylantiriladi va uni boshdan yuqoriga ko'tarib, tirsagini bir oz egib, joyida aylanishni davom ettiriladi. Musiqa tezlashgani sayin, aylanish tezligi ham oshib, raqsni o'zining eng yuqori nuqtasiga yaqinlashtiradi. Ritm 2/4 yoki 5/8, erkaklar va ayollar bir-biriga qarshi raqsga tushishlari mumkin. Eng uzoq va eng tez aylanayotgan raqqosa yakuniy g'alabani qo'lga kiritadi. Bu butun Do'lan raqsining eng hayajonli qismidir.

Do'lan raqs zamonaviy davrda rivojlangan. O'zining kuchli, nafis, jasur va erkin xususiyatlari bilan farqlanadi. "Do'lan" raqs butun mamlakat bo'ylab ijro etilib, keyinchalik Xitoy kollej va universitetlarining xalq raqs dasturlariga kiritildi. Keyinchalik Shinjon milliy fitnes dasturida ham keng qo'llaniladigan loyihalardan biri bo'ldi. Sababi "Do'lan" raqs katta sportga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. [5]

Xulosa va tavsiyalar

San'at inson ishlab chiqarishining uzluksiz mehnat jarayoni mahsulidir. Do'lan raqs uyg'ur xalqining rivojlanish jarayoniga guvoh bo'ldi. Aynan shu qadar qizg'in va jonli hayotga ega bo'lgani uchun "Do'lan" shunchaki o'yin-kulgi maqomidan o'sib, san'at va madaniyatning yuqori darajasiga ko'tarildi. Do'lan raqs asta-sekin zamonaviy jamiyatda yashovchi insonlar uchun eng lazzatli ma'naviy ozuqaga aylandi. Bugungi kunda ijod qilayotgan ko'plab xoreograflar aynan Do'lan raqsining turli ko'rinishlarini ijodiy yangilash bilan shug'ullanmoqdalar.

Shuni aytishimiz mumkinki, ikki xalqning mashhur raqslari o'z xalqining quvonchu shodliklarini, milliylik xususiyatlarini va ayniqsa, qadim an'analarini ifodalaydi. Ayni shu asnoda ikki xalqning mushtarak san'ati doirasida uning rivoji o'laroq yana-da kengayishi tarafdorimiz. Qolaversa, ushbu noyob san'at durdonalari yana uzoq asrlar mobaynida dunyo sahnalarini to'ldirib turishiga ishonamiz. Kelgusida "Lazgi" va "Do'lan" raqslari haqida kompozitsion spektakl yaratish lozim.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Авдеева Л. Мухиддин Кари-Якубов. Документальная монография. Т.: Фан. 1984. 244 с.
2. Xorazmiy.uz www.
3. Uyg'ur Daolang raqsining mintaqaviy madaniy xususiyatlari. // Shanxi Datong universiteti jurnali. 2018. 89-91-betlar.
4. Shinjang Makit okrugida Daolang madaniyatini himoya qilish va meros qilib olish bo'yicha tadqiqotlar. Tarim universiteti. 2017. 213-216-betlar.
5. Dosmetova R. Abraykulova N. Raqs. Darslik T.: «Barkamol fayz media». 2017.
6. Uyg'ur Daolang raqsining mintaqaviy madaniy xususiyatlari. // Shanxi Datong universiteti jurnali. 2018.
7. Shinjang Makit okrugida Daolang madaniyatini himoya qilish va meros qilib olish bo'yicha tadqiqotlar. Tarim universiteti. 2017.

ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA MONIY SURATGAR OBRAZINING TALQINI

Azizxon IMAMOV,

san’atshunoslik fanlari
bo’yicha falsafa doktori
(PhD)



Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodini O'rta asrlar Sharq madaniyati, xususan, Temuriylar davri san'ati haqida keng ma'lumot beruvchi qimmatli manbalar qatoriga kiritish mumkin. Mutaassibona qarashlardan ozod, zamonasining ilg'or fikrlovchi ijodkorlaridan biri sifatida Navoiy musavvirlik san'atning badiiy-g'oyaviy ahamiyatini chuqur anglaydi. Shoirning shaxsiy kutubxonasida Mirak Naqqosh, Hoji Muhammad, Sulton Ali Mashhadiy, Kamoliddin Behzod kabi musavvirlar, Hofiz -Muhammad, Zayniddin Mahmud, Sulton Muhammad Nur kabi xattotlar ijod qigani ham bunga dalil. Bu iste'dodli ijodkorlar keyinchalik sulton Husayn Boy-qaro saroyida, so'ng Eron, Hindiston, Rum hukmdorlarining nigorxonalarida faoliyatini davom ettirib, Sharq kitobot san'ati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishdi. Shu bilan birga "San'at sekulyarizatsiyasi jarayoni, uning rivojida qaror topgan yangi tendensiyalar nafaqat miniatyura ravnaqida, balki hunarmandlikda ham o'z aksini topdi" [1, 119].

Ulug' shoir nafis ijod ahliga homiylik qilish bilan birga, san'atning inson ma'naviyatidagi o'rni, uning badiiy-g'oyaviy masalalariga ham befarq bo'lmagan. Navoiyning miniatyura, me'morchilik, badiiy hunarmandlik kabi plastik san'at turlariga jiddiy e'tibor bilan qaraganini shoir qalamiga mansub asarlar misolida ham ko'rish mumkin. Bu borada, ayniqsa, Navoiy "Xamsa"si-ga kirgan "Sab'ai sayyor" dostonidagi Moniy suratgar obrazining talqini katta qiziqish uyg'otadi. Turkiy tilda yaratilgan ushbu poetik ijod namunasi nafis san'at turlari, xususan, musavvirlik sohasi keng doirada talqin etilgan asar sifatida qiziqish uyg'otadi.

Nafis san'at "Sab'ai sayyor" dostonining umumiy syujeti, badiiy-g'oyaviy konsepsiyasi bilan bog'liq shaklda talqin etilgan. Ya'ni musavvirlik, me'morlik va badiiy hunarmandlik kabi plastik san'at turlariga asarda yuz beruvchi voqealar bilan uyg'unlikda nazar solinadi. Jumladan, dostonning muqaddima qismi-



dayoq muallif g'aroyib tush ko'rgani-ni, yetti gumbazni sayr etib, Xizrvash pir bilan uchrashganini, u shoirni "Sab'ai sayyor" dostonini yaratishga chorlaganini hikoya qiladi.

***Sanga budur bu qissa isnodi,
Ki, solib, yetti qasr bunyodi.
Chun tugatgaysen ul rafe' qusur,
Solg'asen yetti qasr aro yetti hur.
Ul sifatkim, alar kelib hamrang,
Topqay ul nav' ila bular ham rang.***

[2, 314]

Xizrvash pir tilidan aytilgan mis-ralarda doston yaratilishi yetti qasr qurilishiga o'xshatilib, uning mualli-fi zamonasining ulug' muhandis-me'moriga aylanadi. Bu qiyos dos-ton davomida Shoh Bahrom uchun bunyod etiluvchi qasrlarga urg'u berish bilan birga, shoir zimmasiga katta mehnatni talab etuvchi mush-kul vazifa yuklanayotganiga ham ta'kidlay. "Ganja ganjuri" (Nizomiy) va "Hind sohiri" (Dehlaviy)dan so'ng bu ishni amalga oshirish uchun shoir adabiyot maydonida muhtasham obida tiklashi lozim edi. Me'morlik Temuriylar davrida yuksak darajada ravnaq topganini, Husany Boyqaro saltanatida olib borilgan bunyodkor-lik ishlarining salmoqli qismi Navoiy rahbarligi va homiyligida olib boril-ganini hisobga olsak, bu o'xshatish nafaqat ramziy, shuningdek, real asosga egaligi ham ayon bo'ladi.

Dostondagi asosiy voqealar aynan shoh va musavvir uchrashu-vidan boshlanishi diqqatga sazovor. Garchi Moniy obrazi shoirning "Far-hod va Shirin" dostonida ham mav-jud bo'lsa-da, unda Sharq olamining afsonaviy musavviri Chin shahzodasi-ga naqqoshlikdan saboq bergan [3, 381-388] epizodik personaj sifatida namoyon bo'ladi. "Sab'ai sayyor"da esa Moniy asosiy qahramonlardan bi-riga aylanib, uning ishtiroki voqealar rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Aynan Moniy qiyofasida Navoiy-ning komil musavvir haqidagi qa-rashlari yorqin aks etganini ko'ra-miz. Shoh va musavvir uchrashuvi sahnasida Bahrom hayot lazzatla-riga ruju qo'ygan gedonist-hukm-dor sifatida namoyon bo'lsa, Moniy, aksincha, yetti iqlim bo'ylab safar qi-luvchi donishmand sifatida gavdala-nadi. Navoiy uchun prinsipial ahami-yatga ega ikkinchi muhim jihat esa uchrashuv davomida Shoh Bahrom avval Moniyning "so'z"ini tinglashni istaganida ko'rinadi. Ya'ni hukmdor birinchi navbatda, dashtnavard mu-sofirning suhbatidan bahramand bo'lishni xohlaydi. Shundan so'nggi-na Bahrom "lo'batixitoyizod" Dilorom suratiga nazar soladi. Bu voqea dos-ton muqaddimasida Navoiy alohida e'tibor qaratgan "ham avval so'zu ham oxir so'z" [2, 296] g'oyasiga mos kelib, shoir "So'z" barcha ijod turlari, xususan, musavvirlik san'ati uchun ham poydevor bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. Demak, Navoiy nazarida-gi komil musavvir — avvalo, hayo-tning o'tkinchi lazzatlaridan yiroq, so'z san'atidan, dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lishi lozim. Moniyning "Ko'p bilik birla xotirim ma'mur, Lek tasvir ila bo'lub mashhur" [2, 344] degan javobi ham buni tasdiqlay-di. Biroq bu jihat Navoiy so'z san'a-tini boshqa ijod turlaridan ustun qo'ygan, degan xulosani bermaydi. Aksincha, shoir, musavvirga nisbatan oddiy hunarmand yoki tor doiradagi kasb egasi emas, balki to'laqonli ye-tuk ijodkor sifatida qarashga intiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, musavvir shaxsiga bunday munosabat shoir yashagan tarixiy davr bilan bevosita bog'liq. Temuriylar zamonida yuz bergan madaniy taraqqiyot jamiyat-da estetik qarashlarning rivojlanishi-ga, badiiy tafakurning o'sishiga olib keldi. Avvalgi davrlardan farqli ravish-da san'at ahliga munosabat ijobiy tomonga o'zgaradi. Mazkur jarayon

Temuriylar davri bilan tarixiy mutanosiblikka ega Yevropa Renessansida ham kuzatilishi hisobga olinsa, chindan ham “G'arb klassik rangtasviri Temuriylar davri Sharq san'ati bilan yagona estetik manbaga egaligi” [4, 132], bu umumjahon san'atining rivojlanish mezonlari bilan asoslangani ma'lum bo'ladi.

Navoiyning Moniya bergan ta'riflari orasida “suratgar” ya'ni “Rasm soluvchi, rassom” [5, 576] so'zining uchrashi ham bejiz emas. Bugungi kunda “suratkash” ma'nosida qo'llanuvchi ushbu so'z shoir zamonida “surat” tushunchasi, ya'ni tashqi ko'rinish, hol va kayfiyat ifodasi bilan bog'liq bo'lgan. Tasavvuf ilmidagi “surat” so'zi ikki xil mazmunda qo'llanib: “zohiriy, o'tkinchi va haqiqiy bo'lmagan surat bilan birga, botiniy, o'zgarimas va muhaqqaq surat ham mavjud” [6, 130]. Aziziddin Nasafiy “Kashf ul-haqoyiq” risolasida bu tushunchaning har ikki ma'nosiga tavsif berarkan, inson asliyatini aynan “botiniy surat” qarab belgilanishini ta'kidlagan. Shu sababli u tashqi suratdan ustun turadi va insonning “haqiqiy surati” hisoblanadi. Navoiy “suratgar” so'zini qo'llaganda rasm soluvchi oddiy ijodkorni emas, insonning murakkab ichki olami, ruhoniyatini ochib berishga intiluvchi “portret ustasi”ni nazarda tutganiga shubha yo'q.

Ma'lumki, Temuriylar davrida Hirot miniatyura maktabida Sharq san'ati uchun noyob hisoblangan portret an'analari keng rivoj topgan. Afsonaviy qahramonlar, hukmdorlar, ularning oila a'zolari va saroy ayonlari, xususan, Navoiy obrazi ham musavvirlar tomonidan yuksak mahorat bilan tasvirlangani XV asrning so'nggi choragiga kelib, miniatyura portreti alohida janr sifatida shakllanganidan dalolat beradi. “Miniatyuraning shartliligi uning perspektivasiga, nur-soya munosabatlari esa uning hayotiy ekanligiga zarracha ham ta'sir etmay-

di” [7, 13]. Ayniqsa, Navoiy kutubxonasida tarbiyalangan Kamoliddin Behzod yaratgan portretlar obrazli-individual talqini, haqqoniyligi bilan ajralib turadi.

Zamonasining yetuk gumanist ijodkori sifatida Navoiy inson siymosi, uning jonli tasviri masalasiga jiddiy e'tibor qaratgani tabiiy xol. Shoir portretnavis musavvir ijodini, portret janrining xususiyatlari, uning boshqa san'at ko'rinishlaridan ajralib turishini teran anglaydi. Shu bois, Shoh Bahrom Diloromning nafis suratini ko'rganida mo'jizaviy kuchga ega jonli ijod namunasi bilan yuzlashgandek, hayratga tushadi. Ammo Bahrom tabiatidagi bu evrilish birgina estetik taassurot natijasida yuz bermaydi. Navoiy musavvir yaratgan san'at asari insonning ichki ruhiyatiga, qalb dunyosiga ta'sir etish qudratiga egaligini yaxshi anglaydi va asosiy e'tiborni Bahromning siyratida, ichki olamida yuz beruvchi psixologik o'zgarishlarga qaratadi. Dilorom suratini ko'rgan zahoti Bahrom hech kimga so'z demay, sukutga ketib, oqshomga qadar suratdan ko'z uzmaydi. Shoh elchilari Dilorom qo'lini so'rash maqsadida Xi-toy xoni huzuriga jo'naganidan so'ng ham surat va musavvir yor ishqida yonayotgan Bahrom uchun yagona ovunch bo'lib qolaveradi.

***Noma hoqong'a dog'i topti vuqu',
Anga bo'ldi baho husuli ruju'.
Bilib ul xayl azm ishin lozim,
Bo'ldilar aytqon taraf ozim.
Qoldi Bahromu notavon joni:
Ilgida surat, ollida Moniy. [1, 349]***

San'at insonga taskin berishi, xasta ruhiyatiga shifo bag'ishlashi haqidagi g'oya dostonning keyingi voqealarida ham yorqin poetik ifodasini topgan. Bahrom sevikli yoridan ayrilgach, muhabbat dardiga chalinib, vujudi xasta va zaif ahvolga keladi. Bundan



xavotirga tushgan saroy ayonlari to'rt yuz tabibni chorlab, ular shoh uchun go'zal imoratlar qurishni maslahat beradi. Tabiblarning fikricha, qasrlarni bunyod qilish jarayoni, ularni bezagan naqshu nigorlar shohni sog'aytirishi, dardiga shifo berishi lozim edi. Nihoyat qurilish ishlari yakunlangach, shoh ayonlari qasrlarni bezashga yordam berishi uchun Moniyga murojaat qilishadi. Bu "Sab'ai sayyor" dostonida Moniy suratgar obrazi bog'liq ikkinchi muhim syujet liniyasi hisoblanadi.

***Borcha Moniyni qildilar hozir,
Dedilar: "K-yey funun aro mohir.
Chun sen erding burun ul ish sababi
Kim, bo'lub erdi shohning tarabi.
Sihhatig'a yana sabab bo'lg'il.
Tab'ig'a boisi tarab bo'lg'il.
Qasrlar ziynatig'a ohang et,
Bu yetti qasrni yetti rang et. [1, 390]***

Alisher Navoiy me'moriy inshootlarni bunyod etish va bezatish alohida jarayonlar ekanini yaxshi bilgan uchun dostonida ularning o'ziga xos spetsifik xusustlari haqida izchil hamda aniq tasavvur beradi. Ya'ni shoir o'quvchi san'at turlarini, ularga xos badiiy va amaliy xususiyatlarni farqlashini istaydi. Aynan shu maqsadda Navoiy shoh Bahrom va Diloromning fojiaiy muhabbati haqidagi dostonida Temuriylar davrida rivoj topgan san'at turlarining umumiy kompleksini tasvirlab beradi.

Moniy mamlakatdagi bor naqqoshlarni to'plab, har biriga maxsus vazifalarni topshiradi. Ustalarni naqqshbandlik, zarkorlik kabi sohalar bo'yicha yetti guruhga ajratib, ularga ishboshilar tayinlaydi. O'zi bo'lsa amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar rejasini tuzib, naqqoshlar ishini nazorat qiladi. Dostonning ushbu boblarida bunyodkorlik ishlari katta mahorat bilan tasvirlanishi o'quvchini befarq qoldirmaydi. Bunyodkorlik jarayoni shunday ishonarli va izchil

hikoya qilinadiki, shoirning o'zi ham me'morlik, badiiy hunarmandlik sohalar bilan yaqindan tanishligi seziladi. Navoiy Hirot hamda saltanatning turli hududlarida olib borilgan bunyodkorlik ishlariga bevosita boshchilik qilganini nazarda tutilsa, buning ajablanarli tomoni yo'q. Shu sababli, shoir qalamga olgan yuqoridagi voqealar hayotiyli bilan ajralib turadi. Kamoliddin Behzodning "Havarnaq qasri" nomli mashhur miniatyurasiga monand tarzda Navoiy ham bunyodkorlik jarayoni tasvirida zamondoshlari timsoli, real voqea va holatlardan keng foydalangan.

Yuqorida keltirilgan misollar "Sab'ai sayyor" dostonida plastik san'at talqini tasodifiy emas, balki aniq izchillikka egalagini ko'rsatadi. Bu jarayon asardagi voqealar rivoji bilan uyg'unlikda kechgani uchun ham tabiiy va hatto zarur badiiy xususiyat sifatida qabul qilinadi. Buni Oksfordning Bodleyan kutubxonasida saqlanayotgan "Xamsa" dostonlarining XV - XVI asrlarda Hirotida ko'chirilgan nusxalari uchun ishlangan betakror miniatyuralar [8, 32] ham ko'rsatib turibdi. Shubha yo'qki, ushbu go'zal san'at asarlarining yaratilishida Navoiy qo'llagan tasviriy detallar musavir uchun asosiy ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Ular orasida 1553 yilda Buxoroda kotib Muhammad Ali tomonidan ko'chirilgan "Sab'ai sayyor" dostoni qo'lyozmasidagi miniatyuralar biri: Moniy Bahromga Diloromning rasmini ko'rsatishi sahnasi [8, 12. Bodleyan kutubxonasi, Elliot 318. v. 14a, 13,5×22,3 sm.] e'tiborini tortadi. Buxoro maktabiga xos to'q va yorqin ranglari, puxta kompozitsiyasi bilan ajralib turuvchi mazkur miniatyura markazidagi Moniy obrazi XV-XVI asrlarda yaratilgan Navoiy portretlariga o'xshashligi seziladi. Hali soqol qo'yishga ulgirmagan yosh yigitlarning tipologik qiyofalari orasida afsonaviy musavvir siymosi ulug'

yoshni qarshilagan, individual hislatlarga ega donishmand ko'rinishida tasvirlanishida ham portret xususiyatlari namoyon bo'lgan.

Mashhur dostonlarga bag'ishlangan miniatyuralarda zamondoshlar, real shaxslar obrazidan foydalanish an'anasi mavjud bo'lganiga asoslaniib, Moniy suratgar ulug' shoirning mavjud portretlariga murojaat etganini taxmin qilish mumkin. Moniy tomoshabinga ko'rinib Dilorom suratini Shoh Bahromga uzatayotgan holatda tasvirlangani, ya'ni an'anaviy miniatyura kompozitsiyasida "portret ichidagi portret" mavjudligi buxorolik musavvir dostonidagi bu sahna mazmunini chuqur mushohada etib, o'ziga xos tasviriy yechim topishga erishganidan darak beradi.

"Sab'ai sayyor" dostoni asosidagi kuzatishlarimizni xulosa qilarkanmiz, Alisher Navoiy yetuk san'at

bilimdoni bo'lganini qayd etish zarur. Navoiy so'z musavviri, mutafakkir ijodkor sifatida san'atning amaliy va nazariy masalalarini talqin etishga ma'naviy aktuallikka ega vazifa sifatida yondashgan. "Sab'ai sayyor" dostonidagi Moniy suratgar obrazini talqini misolida shuni ko'rish mumkinki, shoir musavvirlik san'ati, xususan portret janri, uning spetsifik xususiyatlari bilan yaqindan tanish bo'lgan va teran mushohada etgan. Navoiy bu tajribalardan adabiy ijodda ham keng foydalanib, so'z va tasvir san'atlarini yuksak mahorat bilan uyg'unlashtirishga erishgan. O'rta asrlar Sharq san'ati va adabiyoti bilan bog'liq ko'plab qiziqarli mavzularga yo'l ochuvchi bu ijodiy sintez tadqiqotchilarni Alisher Navoiy ijodiga yana-da chuqur nazar solishga undashi lozim, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гүль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана (Античность и средневековье). – Ташкент: "PRINT-S", 2005, –208 с.
2. Navoiy A. To'la asarlar to'plami: Yettinchi jild. Xamsa. Layli va Majnun. Sab'ai sayyor. – Toshkent: "G'afur G'ulom", 2011, -696 b.
3. Navoiy A. To'la asarlar to'plami: Oltinchi jild. Xamsa. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. – Toshkent: "G'afur G'ulom", 2011, -808 b.;
4. Хакимов А. А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Ташкент: "San'at", 2010, – 504 с.;
5. Navoiy asarlari lug'ati. Tuzuvchilar: P. Shamsiyev va S. Ibrohimov. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1973, – 784 b.;
6. Шукуров Ш. Искусство средневекового Ирана (Формирование принципов изобразительности). -М.: Наука, 1989, – 248 с.;
7. Pugachenkova G. Behzod va O'rta Sharq miniatyurasida portret janri. // "San'at", – Toshkent, 2000. – № – B. 10-15;
8. Alisher Navoi asarlariga ishlangan rasmlar. Tuzuvchi: H. Sulaymon. – Toshkent: Fan, 1970, – 32 r.;



УНИКАЛЬНЫЙ БАЛЕТНЫЙ СПЕКТАКЛЬ «ЛАЗГИ – ТАНЕЦ ДУШИ И ЛЮБВИ»

Мария ЛЕВИЦКАЯ,

преподаватель
Государственной
академии
хореографии
Узбекистана,



Аннотация. В статье рассматривается история создания балетного спектакля «Лазги – танец души и любви», поставленного балетмейстером из Германии Раулем Раймондо Ребек на сцене Государственного академического Большого театра имени Алишера Навои. Основу спектакля составляет история возникновения и развития древнего хорезмского танца «Лазги».

Ключевые слова: культура, наследие, творчество, мастерство, преемственность, выразительность, исполнитель, школа, танец, фольклор.

Annotation. The article examines the history of the creation of the ballet performance “Lazgi - the dance of soul and love”, staged by German choreographer Raul Raymond Rebeck on the stage of the State Academic Bolshoi Theater named after Alisher Navoi. The basis of the performance is the history of the origin and development of the ancient Khorezm dance “Lazgi”.

Key words: culture, heritage, creativity, skill, continuity, expressiveness, performer, school, dance, folklore.

Включение хорезмского танца “Лазги” в Репрезентативный список нематериального культурного наследия ЮНЕСКО явилось одним из ярких событий последних лет в узбекском национальном танцевальном искусстве. Решение об этом было принято 12 декабря 2019 года в столице Колумбии городе Боготе в ходе 14-й сессии Межправительственного комитета ЮНЕСКО по охране нематериального культурного наследия.

Это событие стало своеобразным свидетельством международного признания школы хорезмского танца, поскольку «Лазги» является одним из древних и неповторимых образцов самобытной танцевальной культуры узбекского народа. Его древнее происхождение подтверждают сохранившиеся до наших дней письменные источники, произведения изобразительного искусства, образцы устного народного творчества.

В этой связи представляют интерес упоминания древнегреческого историка и географа Геродота о живших в Хорезме племенах массагетов: «Живущие на берегу Окса (Амударьи) массагеты вечером зажигают костёр, пьянеют от запаха растений, танцуют возле огня, пока он не потухнет». [1, с.201.] Изображения танцующих людей, рисунок движения которых напоминает «Лазги», можно найти в археологическом памятнике Топрак-кала – выдающимся памятником культуры Древнего Хорезма I–VI веков нашей эры. Данные источники подробно описаны в исследованиях академиков С.П.Толстова [2.] и М.Р.Рахманова [3.]. В наши дни не только в Узбекистане, но и в ряде городов Европы, Азии и Америки успешно действуют школы и студии узбекского танца, где желающие имеют возможность овладеть образцами ферганского, бухарского и хорезмского танца. Узбекский танец, имеющий многовековую историю и богатые традиции, привлекает к себе внимание балетмейстеров и хореографов во многих странах мира.

К примеру, балетмейстер из Канады Сашар Зариф воплотил творческий проект под названием «Lazgi - Transformation», в котором

попытался познать самобытную школу традиционного хорезмского танца, постичь его приёмы художественно-образной выразительности, овладеть техникой и мастерством исполнения. Презентация проекта была успешно представлена в творческих вузах Ташкента, а также в Ургенче и Хиве и вызвала большой интерес у ценителей танцевального искусства. Наряду со студентами Государственной академии хореографии Узбекистана, в проекте были задействованы молодые и взрослые носители самобытного национального искусства – исполнители на народных инструментах, вокалисты, танцоры, актёры, чьё творчество пропитано духом древнего «Лазги».

В истории балетного искусства Узбекистана приверженность к классическим традициям в балетном искусстве удивительным образом сочеталась с умелым использованием средств художественной выразительности узбекского национального танца.

В данном контексте история танца «Лазги», окутанная легендами и мифами, привлекла к себе внимание главного хореографа Берлинской национальной оперы Рауля Раймондо Ребек, осуществившего при помощи «Фонда развития культуры и искусства Узбекистана» в 2021 году постановку балета «Лазги – танец души и любви» на сцене Государственного академического Большого театра имени Алишера Навои. Мастер танца имеет опыт работы со многими известными хореографами, танцевал в постановках Ролана Пети, Мориса Бежара, Рудольфа Нуреева. С 2012 года Ребек является хореографом Дортмундского балета.



Балетмейстер, восхищённый древним жизнеутверждающим хорезмским танцем, не только полностью вписал его в драматургию спектакля под аккомпанемент «живого» ансамбля узбекских народных инструментов, профессионально исполнявшего мелодию и песню, но почти в каждом хореографическом номере сохранил элементы этого выразительного народного танца.

Приступая к работе над воплощением своего замысла, Р.Ребек не ставил перед собой задачу продемонстрировать эволюцию древнего хорезмского танца от его рождения до наших дней. Композиционно спектакль состоит из четырёх частей, органично связанных между собой темой самого танца «Лазги». Первая картина первого действия, под условным названием «Оазис на шёлковом пути» переносит зрителя в глубину веков, когда в низовьях Амударьи формировалась цивилизация древних хорезмийцев. Танец «Лазги», возникновение которого учёные связывают с обрядами огнепоклонников, имеет более чем трёхтысячелетнюю историю. Энергичный и зажигательный танец помогал древним хорезмийцам выживать в условиях холодных суровых зим и бесконечных междоусобных войн. Несмотря на многочисленные войны, социальные потрясения и природные катаклизмы, происходившие в Хорезмском оазисе, танец сохранился до наших дней.

Вторая картина происходит в наше время в «Музее естествознания», в котором оживают восковые фигуры одной любящей пары. Души исторических персонажей прошлого сливаются с посетителями музея и одухотворяют их Лю-

бовью. На сцене остаются две девушки, олицетворяющие «Душу» и «Любовь» в одном человеке. Их танец с возлюбленным – это не только чьи-то воспоминания. Танец трёх солистов балета олицетворяет единение прошлого и настоящего в каждом человеке. Кстати, танец возлюбленных сопровождается исполнением газелей средневекового поэта Боборахима Машраба – поэтическим диалогом двух влюблённых на узбекском языке.

Второй акт начинается с третьей картины, с названием «В современном мире и традиции» – это попытка балетмейстера заглянуть в деловое механистическое общество, в котором вместо души – механические действия и рефлексы человеко-роботов, поражающее нас вдобавок неограниченной властью верхов и раболепием вокруг их персон. Бездушный деловой мир хореограф противопоставляет народным культурным традициям и в одном танце объединяет прошлое, настоящее и будущее, в котором побеждают общечеловеческие духовные ценности. В четвёртом действии утверждаются две вечные ценности на земле – «Душа» и «Любовь», наиболее ярко воплощённые в хорезмском танце «Лазги», завершающем балетную постановку.

Классический «Лазги» исполняет Дильноза Артыкова, ученица Гавхар Матякубовой – Народной артистки Узбекистана, знатока хорезмского танца и консультанта спектакля [4.]. Солистка в ярком национальном костюме начинает танец в медленном ритме, замерев в позе и подняв руку вверх, как бы направляя к Солнцу – затем начинает последовательно приводить

в движение пальцы и кисти, затем руки, плечи, шею, корпус и ноги, приводя всё тело в движение, сопровождающееся мелкой дрожью (по-узбекски «титратма»), с комбинацией поворотов, наклонов, мелких проходов, приседаний, подскоков и специфических движений шеи («ястребиная шея» или «ийгир буйин»), корпуса («гавда тебраниши» и «гавда иргитиш»), плеч («елка кокиш»), подбородка («ияк харака-ти»). Ритм танца постепенно ускоряется, наполняя его всё большей энергией и темпераментом. Исполнительница завершает танец с почти экстатическим чувством чистой радости и счастья, вызывая бурю восторга в публике. Зрители вместе с танцовщицей как бы заново возрождаются к новой здоровой счастливой жизни. При этом, на протяжении всего спектакля балетмейстер сочетает элементы классической хореографии с лексикой узбекского танца.

Помимо классического образца хорезмского танца, зрители смогли увидеть в балетном спектакле также «Лазги» масхарабозов – на-

родных комедиантов. В прошлом масхарабозы, как древние носители традиций зрелищного искусства, развлекали толпы людей на базарах, площадях в дни народных гуляний. В XIX - начале XX веков гротесковые маски были заменены оригинальным гримом. Древние танцоры были искусными подражателями животных и птиц, умело имитирующими издаваемые ими характерные движения и звуки [5]. Все эти элементы народного танца своеобразно по-современному воплощены в новом балетном спектакле «Лазги».

Новый балетный спектакль был с успехом показан на сцене Мариинского театра в Санкт-Петербурге, Большого театра в Москве, а также на сценах Парижа, Берлина, Стамбула, Дубая и других городов. Несомненно, что творческие поиски зарубежных балетмейстеров свидетельствуют не только об их интересе к узбекскому танцу, но и о самобытности национальной танцевальной культуры, дающей возможность для ее сценической интерпретации на балетной сцене.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Геродот. История. Т.1. – Москва: Эксмо, 2008.
2. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: 1948.
3. Рахманов М.Р. Узбекский театр. –Ташкент: Изд-во им.Г.Гуляма, 1981.
4. Матякубова Г. Офатижон Лазги. – Тошкент: 1993.
5. Авдеева Л.А. Из истории узбекской национальной хореографии. - Ташкент: Узбекракс, 2001.



DIFFERENCES BETWEEN JAPANESE TRADITIONAL DANCE COSTUMES, HAIR AND MAKEUP, AND UZBEKISTAN

**Haruka TACHIBANA
(Kyoko IWAMOTO)**

Cultural policy and
intellectual
property researcher, CSPC
representative



Introduction

I will describe the history and characteristics of the costumes and hair and makeup of traditional Japanese dance. The reason is that Japanese culture was transmitted to Japan from Central Asia such as Uzbekistan via the Silk Road. Kimono and hair and makeup were also like those of the Silk Road countries until around the 7th century. However, since then, Japanese culture has undergone a unique and unique evolution. Kimono and hair and makeup also have unique shapes, designs, and techniques. I will organize them and introduce the relationship between Japanese traditional music and dance.

1. About Japanese kimono

1) History of Japanese kimono

Our dance costume, the kimono, is unique to Japan. From ancient times to the Nara period (710-794), Japanese folk costumes were mainly pants-type garments, skirt-type garments combined with jackets, or dress-type garments. This is very similar to the costumes of any of the countries on the Silk Road.

The prototype of the kimono dates to the Heian period (8th century).

Around this time, two major classes were created in Japan: commoners and nobility. Common people wore simple clothes made of linen. The material used for aristocratic kimonos was not only linen but also silk. Japan's climate has a lot to do with the culture of the Heian period. Japan has four seasons: spring, summer, fall, and winter, and the nobilities of the Heian period preferred lifestyles that matched the seasons, and their unique culture rapidly developed. In the winter, they wore layers of kimono, and in the summer, they not only reduced the number of kimonos, but also changed

the material to airy materials such as linen to enjoy fashion. The kimono is characterized by fabric cut in straight lines and sewn together. This combination of kimono and obi shape has been used for about 250 years.

Around 1200, cotton began to be cultivated in Japan. This allows cotton to be incorporated into the kimono material. From around this time until around 1800, cloth woven directly with vertical stripes became popular among the Japanese common people. This vertically striped cloth was mainly made in the southern islands of Japan. The striped pattern was popular because it looked stylish when worn with a kimono that hugged the body, and because it was a slightly more mature costume unique to Japan. However, around the same time, this striped pattern did not seem to be popular in Europe. Costumes in Uzbekistan also have colorful vertical stripes, and they were also popular in Japan because they were worn by Kabuki actors. On the other hand, Japanese vertical striped patterns with

similar colors were also preferred, and their designs and color combinations created many trends among the common people.

In addition to the kimono, men's kimono includes the hakama. Hakama are pants-like garments worn over the kimono. Hakama originated around 700 BC. The current form dates from around 250 years ago.


In the Edo period (1603-1867), women were not allowed to wear hakama, but from 1871, women were allowed to wear hakama as well. The greatest feature of the Japanese kimono is that many Japanese people still wear the same costume of 250 years ago.□

2) Kimono structure and accessories

The kimono is made of 36 cm wide and 12 meters long. It is efficiently cut and sewn together to form a single kimono.□ The same kimono can be worn by people with different body shapes because the two cords at the waist allow the kimono to be worn along the body.

The accessories that are indispensable to the kimono are also a must.

In particular, the obi, the belt at the waist of the kimono, is an important accessory of the kimono. Obi is a woven fabric. It is decorated with colorful patterns mixed





with gold threads. The obi is about 34 cm wide and about 4 meters long. As with kimono, the main material used is silk. Of course, polyester, and other materials are also available nowadays.

3) Kimono cloth and design

The cloth is silk or cotton, but nowadays, polyester, and other synthetic fibers are also available. There is also a delicate Japanese technique called Yuzen, in which dyed patterns are drawn on white silk. The patterns are mostly seasonal flowers and traditional designs. Many of the patterns on Japanese kimonos were imported from overseas. Also called Karamon, many of them were brought over from China. Some of these patterns are also called “Yusoku patterns” because they were worn by scholars (experts) during the Heian period. Similar patterns can be found in China, Central Asia, and sometimes Europe. Yushoku patterns are considered to be highly dignified patterns and are still often used in obi belts for formal wear even today.

An example of a Yusho pattern Phoenix pattern, diamond pattern, arabesque pattern, vertical frame pattern, tortoiseshell pattern, cloud crane pattern, etc. Silk kimonos are mainly made by dyeing white silk cloth. There are three main ways to add patterns to dyed fabrics. These are hand-dyed, stencil-dyed, and tie-dyed. Hand-dyed dyeing is a dyeing technique in which the pattern is literally drawn by hand. Use a brush to draw a rough sketch on white fabric, place glue to prevent adjacent colors from mixing, and then add colors with a brush to dye. Among hand-dyed dyes, wax dyeing involves drawing designs with wax and resist dye-

ing. A typical example of hand-dyed dyeing is “Yuzen dyeing.” Hand-dyed kimonos are expensive because they require a high level of craftsmanship. stencil dyeing

Katazome is the process of creating detailed patterns on fabric using patterns cut out of paper such as paper. A typical example of stencil dyeing is “komon.”Komon is a dyeing technique in which very small patterns are applied to the entire fabric, and the finer the pattern, the higher the status, and it is also used for formal wear. There are two methods of stencil dyeing: one is to use a mold to apply the dye, and the other is to use a mold to place glue and use resist dyeing. There are also gorgeous types of stencil dyeing, such as bingata, which use multiple paper patterns to print in multiple colors.

Tie-dyeing is an ancient technique. The white fabric is tied with thread or pinched with clips to prevent the dye from entering, and then soaked in the dye. When the entire dough is squeezed finely, it is called soshibori. Total shibori uses a lot of fabric, so the kimono will be expensive. Because tie-dye is gorgeous and has elasticity, it is also used for accessories such as obiage and hair ornaments. A typical type of tie-dyeing is “pique-dyed”. All dyed products require many steps to complete, so they are of high quality and extremely delicate. In Japan, kimonos are worn not only as dancing costumes, but also for family events, parties, and for everyday fashion.

I am working on a project to create kimonos from Uzbek cloth, which is very popular. It also helps Japanese people become interested in and understand Uzbekistan’s culture.

2. About Japanese dance hair and makeup

1) Why is the makeup in traditional Japanese dance white?

The reason why Japanese traditional dancers wear white makeup is that their faces are painted white so that their faces stand out clearly in the dim light of candles. White faces of actors in dance performances were also liked because it looked interesting and drew people's interest. This feeling is probably like that of Western clowns. Furthermore, the founder of Japanese traditional dance was a woman, but due to its bewitching nature, the Japanese government (Edo Shogunate) banned female actors in 1629, and from then on, men played female roles on stage. It becomes like this. To clearly differentiate the roles of men and women, women and those who play the role of justice wear white make-up, while villains wear black or red designs on their skin-colored or shady faces. They have also been incorporated into modern Star Wars movies. You can tell who the villain is and who is the righteous just by looking at it. The villains wore red or black makeup with black designs, and the princesses wore traditional Japanese white makeup.

Also, Japanese people especially like the color white. For example, white has the image of purity, purity, and purity, as being pure and noble. Furthermore, actors are people who deviate from the normal human being by painting it white by pretending to be the role they are playing rather than themselves. He had the image of a god, and that alone made him attractive as an actor.

2) Traditional Japanese hairstyle

The typical female hairstyle of ancient Japan was the "Mizukura." During the Nara period, the culture of the Tang Dynasty was imported, and a hairstyle called "Kouhatu" became popular, but in the Heian period (800), a style unique to Japan was introduced. "Suihatsu" became common, and this hairstyle continued until the Muromachi period (1500). This hairstyle was considered more beautiful if the hair was worn down or long. This is a hairstyle where you can clearly see the length.

During the Edo period (1700), real economic power was transferred to the townspeople, and Edo culture, known as the glamorous beauty, flourished. To relieve the hassle of having long hair, curly hair was developed in the early Edo period, and "Shimada" was devised. In the middle of the Edo period, a specialized hairdresser called "Onna-hatsushi : hair designer for women" was born, and a hard-dried beard oil was developed, and new hairstyles were devised. In the late Edo period, the luxurious and elaborate taste of the mid-Edo period was discovered, and a clean and sophisticated aesthetic sense called "Iki" became popular. As a result, variations on the Shimada style became popular. Approximately 300 different hairstyles have been created for both men and women.

3. Relationship between Japanese dance and music

The oldest stage in Japan dates to the 7th century, when music and dance troupes from what is now Korea and China were invited to Japan, and the stage shown on the left was held in Nara Prefecture. After that, the dance was used



in Shinto rituals and spread among the common people as a local dance.

From around the year 1000, styles such as Shirabyoshi, Noh, and Kyo-gen, in which performers danced while speaking, became popular. After 1600, the current style of dancing to music evolved, but it originally developed along with Kabuki, a musical unique to Japan, and Bunraku, which uses puppets. Traditional Japanese dance has developed and continues to this day as a form of dance that expresses these stories through music and song. What is distinctive about this music is that it consists only of double or quadruple time, and there is no triple time. The rhythm is in stark contrast to traditional Korean music, which uses triple time. Additionally, the tempo changes rapidly depending on the scene. Double or quadruple time is by no means a march. Japanese traditional music includes many non-rhythmic parts and slow and fast beats in two and four beats,

and the most important part is said to be the “pause”.

In conclusion

I described the characteristics of Japanese traditional dance costumes, hair and makeup, and music. Among these, there are many developments unique to Japan. This is greatly influenced by Japan's location and national policies. Japan is an island country with four seasons, and a culture that values the seasons and events. Furthermore, Japan has had no diplomatic relations with other countries for 400 years. This is probably one of the reasons why Japanese culture developed uniquely. I am grateful to have been able to take this opportunity to introduce Japan's traditional kimono and hair and makeup. We also hope that you will be interested in our project of making traditional kimonos using Uzbek cloth. thank you very much.

FOR MAGAZINES:

1. Masami Iwasaki: From the perspective of the three structures of clothing (drapery, two-dimensional, three-dimensional), Origin and history of kimono
2. Teruko Tamura: Features of Asian ethnic costumes, Japanese Clothing Society Journal, Jpn. J. Clo. Res. 2005□ Vol.49 No.1
3. Mami Baba: Various ethnic costumes, Japanese Clothing Society Journal, pn. J. Clo. Res. 2007 Vol.51 NO.1
4. Tomomi Murakami: Modern Uzbek dyeing and weaving crafts, Hokkaido Ethnology, 2020, Vol.16
5. Naoya Kobayashi: The essence and meaning of “white” in Japanese dance, Nihon University
6. Masako Suzuki: Hairstyles of the Edo period: Japanese aesthetic sense seen in changes in hairstyles, Yamano Research Bulletin, 1993

A GENERAL OVERVIEW OF MENTALITY AND DANCE IN IRAN AND MIDDLE ASIA

Rouhollah KALAMI,

Master in
Ethnomusicology,
Tehran University of Art
The CEO of International
Center of East
and Silk Road Music and
Dance



Abstract. Mentality is an anthropological concept. In the present article, mentality is considered a collection of human thoughts and beliefs that is related to dance. It is a concept that undoubtedly affects all aspects of human life from physical to metaphysical. Mentality is a collection of beliefs affected by historical myths and archetypes that has been influencing religion, culture, language, dance, music, etc. Therefore, looking at the mentality and dance -one of the most important historical heritage of thoughts, emotions, and beliefs- is important more than ever. Especially in some ancient civilizations and societies such as Iran and Eastern cultures from the Far East to Middle Asia, etc. that have mentality focusing on social and individual mental archetypes. Some of them are unique and some are the same. Digging into this issue would answer lots of what, why, and how questions about dancing. It could build a proper understanding of dance - cultures' development path and make it easier to fulfill contemporary and future human's physical and metaphysical needs. Based on my wide field studies and recordings on Iranian ethnic groups¹ and some other Eastern and Middle Asian cultures², this article discusses dance as a historical outcome of mentality of Iran and Middle Asia cultures.

¹Recordings and field studies by Rouhollah Kalami in the ancient musical and dancing area of Kumesh leading to 6 research music for dance albums and 3 booklets of Iran ethnic music- Kumesh area – number 43,44,45 - released by Mahoor publication in Iran, 2007-2013

²Series of studies, articles, and speeches on studying cultural and musical - dancing mentality of India, Iran, Mongolia and Afghanistan, studying Iran and Middle Asia mentality of auditory culture, an introduction of studying Iran historical musical mentality, studying historical cultural mentality and modern composition for Iranian and Japanese instruments in Nagoya university of Art- Japan, studying mentality, dance and development in the international conference of Lazgi, Uzbekistan, and more.



Keywords: Mentality, Dance, Iran, Middle Asia, Sustainable Development.

Annotatsiya. Mentalitet antropologik tushunchadir. Ushbu maqolada mentalitet raqs bilan bog'liq bo'lgan insoniy fikrlar va e'tiqodlar to'plamidir. Bu, shubhasiz, inson hayotining jismoniydan metafizikgacha bo'lgan barcha jabhalariga ta'sir qiladigan tushunchadir. Mentalitet - bu din, madaniyat, til, raqs, musiqa va boshqalarga ta'sir ko'rsatgan tarixiy afsonalar va arxetiplar ta'sirida bo'lgan e'tiqodlar yig'indisidir. Shuning uchun mentalitet va raqsga nazar tashlaydigan bo'lsak, fikrlar, his-tuyg'ular va hissiyotlarning eng muhim tarixiy merosidan biri hisoblanadi. e'tiqodlar - har qachongidan ham muhimroq. Ayniqsa, Eron va Uzoq Sharqdan O'rta Osiyogacha bo'lgan Sharq madaniyatlari kabi ba'zi qadimiy sivilizatsiya va jamiyatlarda ijtimoiy va individual ruhiy arxetiplarga qaratilgan mentalitetga ega. Ulardan ba'zilari noyob, ba'zilari esa bir xil. Ushbu masalani o'rganish raqsga oid ko'plab savollarga nima, nima uchun va qanday javob beradi. Bu raqsni to'g'ri tushunish - madaniyatlarning rivojlanish yo'lini yaratishi va zamonaviy va kelajakdagi insonning jismoniy va metafizik ehtiyojlarini qondirishni osonlashtirishi mumkin. Eron etnik guruhlar va ba'zi boshqa Sharq va O'rta Osiyo madaniyatlari bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlarim va yozuvlarimga asoslanib, ushbu maqola raqsni Eron va O'rta Osiyo madaniyatlari mentalitetining tarixiy natijasi sifatida muhokama qiladi.

Kalit so'zlar: Mentalitet, Raqs, Eron, O'rta Osiyo, Barqaror rivojlanish.


